

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**Fakultet:** Servis va turizm

**Kafedra:** Xalqaro turizm va turizm servisi

**«Himoyaga tavsiya etildi»**  
Kafedra mudiri D.Z.Norkulova

---

Bayonnoma № 10.28 may 2019 yil

**5610300 - «Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)»  
*ta'lim yo'nalishi***

**TFT-315 guruh talabasi Maxramov Allayor  
Mirkomilovichning “O'zbekiston Respublikasida  
turizm sohasining rivojlanishida normativ-huquqiy  
hujjatlarning tutgan o'rni” mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: i.f.n. katta o'qituvchi Z.O.Raximov**

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>1-bob. O'zbekistonda turizm rivojlanishining me'yoriy-huquqiy asoslari</b> .....	7
1.1. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....	7
1.2. Milliy turizmni tartibga solish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....	12
1.3. O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va me'yoriy hujjatlarning o'rni.....	18
<b>2-bob. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari</b> .....	27
2.1. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish qo'mitasining turizmni boshqarish va tartibga solishdagi ro'li.....	27
2.2. 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi va uning soha rivojlanishidagi imkoniyatlari.....	28
2.3 "Kasaba Samarqand" UK sayyohlik agentligining ko'rsatgichlari va faoliyati tahlili.....	46
<b>3-bob. O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish istiqbollari</b> .....	54
3.1. O'zbekiston Respublikasi turizmini rivojlantirishda erkin turistik zonalarining ahamiyati.....	54
3.2. Klasterli yondashuv asosida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....	62
3.3. O'zbekiston Respublikasi turizmini rivojlantirishda turistlar xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari.....	66
<b>Xulosa va takliflar</b> .....	77
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b> .....	81

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi va ahamiyati.** Bugungi kunda turizm – mamlakatimiz iqtisodiyotining ertangi kuni sifatida baholanmoqda. Ertangi kunimiz yorug' bo'lishi uchun bugun uning chiroqlarini yoqishimiz, ertangi kunimiz mustahkam bo'lishi uchun bugun uning mastahkam paydevorini yaratimiz kerak bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoniga<sup>1</sup> muvofiq sayyohlik mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida belgilandi. Turizmni rivojlantirish qo'mitasining tashkil qilinishi va uning mintaqaviy tuzilmalari shtat birliklari oshirilgani, hududlarda turizm departamentlari va boshqarmalari, hokim o'rinbosarlari lavozimlari joriy qilingani mazkur sohani boshqarish bo'yicha imkoniyatlarni yanada kengaytirgani turizm sohasining rivojlanishi uchun yangi bosqichni boshlab berdi.

Turizmdan keng miqyosda foydalanish lozim. Ushbu sohaning rivojlanishi nafaqat pul tushumini, balki yangi ish o'rinlarining ham ochilishini ta'minlaydi. Buni inobatga olib Davlatimiz rahbari: “Agar biz turizm hisobiga ish o'rinlari ochamiz desak, turistga shart qo'yish emas, balki sharoit yaratishimiz zarur”<sup>2</sup>, deb uqtirdi.

Bugungi kunda mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda “O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4861-sonli Farmoni// “Lex.uz”.

<sup>2</sup> <http://www.prezident.uz/uz/lists/view/1516>

va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini berdi.

Turizmni, avvalambor, xususiy sektorda rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ'ib qilish, bularning barchasi 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiqdir.

Turizm industriyasi subyektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga yo'naltirilgan turizm faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini va normativ-huquqiy baza shakllanmoqda. Turizmning rivojlanishidagi barcha to'siq va g'ovlarga barham berish, viza va ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini, pasport va bojxona nazoratini soddalashtirish, turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish va bozorga xos tarzda tartibga solish mexanizmini maqbullashtirilmoqda, bu esa bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini belgilab beradi.

**Mavzusining o'rganilganlik darajasi.** Iqtisodiy adabiyotlarda turizm rivojlanishining turli xil jihatlari bo'yicha nazariy va uslubiy muammolari o'rganilgan. Uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlardagi olimlarining ilmiy ishlarida va tadqiqotlarida turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini alohida muammolari bo'yicha nazariy va amaliy savollar o'z aksini topgan. O'zbekiston sharoitida turizm sohasining rivojlanishi bo'yicha alohida masalalari bir qator iqtisodchi olimlarimizning ilmiy ishlarida va tadqiqotlarida yoritilgan. Xususan, K.X.Abduraxmonov, M.R.Boltabayev, I.S.Tuxliyev, M.T.Alimova, E.V.Golysheva, M.Q.Pardayev, B.Sh.Safarov, Z.O.Raximov, T.Tashmurotov, N.Tuxliyev, X.M.Mamatqulov, B.X.Turayev, D.K.Usmanova, N.E.Ibadullayev, A.Eshtayev<sup>3</sup> va boshqalar.

---

<sup>3</sup> Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма: учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» Ташкент, 2013. – 248 с.; Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.SH., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2018 y; Alimova M.T. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари // Монография. «Иқтисодиёт» нашриёти, - Тошкент, 2015 –

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi.** Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining rivojlanishida normativ-huquqiy hujjatlarning tutgan o'rnini bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifalari.** Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi va amalga oshirildi:

- O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini qarab chiqish;
- Milliy turizmni tartibga solish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini yoritib berish;
- O'zbekistonda turizmni rivojlantirish qo'mitasining turizmni boshqarish va tartibga solishdagi ro'lini qarab chiqish;
- 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi va uning soha rivojlanishidagi imkoniyatlarini qarab chiqish;
- O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirishda erkin turistik zonalarining ahamiyatini yoritib berish.

**Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti.** Samarqand shahrida joylashgan "Kasaba samarqand" UK sayyohlik agentligi hisolanadi.

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti.** O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining rivojlanishida normativ-huquqiy hujjatlarning ahamiyati hisolanadi.

---

300-б.; Гольшева Е.В. Совершенствование организации и механизма регулирования развития туризма в рыночных условиях. Дис...канд.экон.наук. – Ташкент, 2012. – 156с; Пардаев М.К., Атабаев Р. Туристический ресурсларни тахлил қилиш ва баҳолаш. – Самарқанд: СамИСИ, 2006. – 137 б.; Сафаров Б.Ш. Миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари. – Т.: Фан ва технология, 2016. – 184 б.; Raximov Z.O., Xaitboyev R., Ibadullayev N.E., Safarov B.Sh., Turopereyting. O'quv qo'llanma. – Т.: "Fan va texnologiya", 2018. - 300 б.; Ташмуратов Т.Т. Халқаро туризм. - Т.: Турон – Иқбол, 2007. – 320 б.; Тухлиев И.С., Хайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2014. - 332 б.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 367 с.; Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. – Т.: «O'zbekiston faylufuslar jamiyati» nashriyoti, 2011.-273b; Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. – Т.: Фан, 2009. – 153 с.; Усманова Д.К. Особенности формирования туристского продукта и перспективные направления его развития. Дис...канд.экон.наук. – Самарқанд: СамИСИ, 2009. – 157 с.; Эштаев А.А. Туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси. – Т.: «Фан», 2011. – 280 б.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ko'pgina nazariy tadqiqotlar, xulosa va takliflar aniq uslubiy tavsiyalargacha yetkazildi hamda bu tavsiyalar mintaqa doirasida turizmni rivojlantirish uchun turizmni boshqaruv organlari va shahar ma'muriyati tomonidan foydalanilishi mumkin. Ishning xulosa va tavsiyalari turizm sohasi nazariyasi hamda amaliyotdagi keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ishning natijalaridan oliy va o'rta maxsus kasb ta'lim tizimida turizm va xizmatlar sohasiga iqtisodchilar, menejerlar, marketologlar, turoperatorlarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan va 86 betdan iborat bo'lib, yozma matni kompyuterda bajarilgan. Ishda 3 ta jadval, 1 ta rasm va ilovalar keltirilgan.

# **1-BOB. O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJLANISHINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI**

## **1.1. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati**

Bugungi kunda mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini berdi.

Turizmni, avvalambor, xususiy sektorda rivojlantirish uchunqulay shart-sharoitlar yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ'ib qilish, bularning barchasi 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiqdir.

Iqtisodiyotda turizm sohasining rolini oshirish uchun iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, shu jumladan 2025 yilda turizm eksportini 951 mln. AQSh dollaridan 2,2 mlrd. AQSh dollarigacha oshirishni ta'minlaydi. Uzoq istiqbolda O'zbekiston turizmi milliy iqtisodiyotdagi yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, mintaqa va dunyo turistik xizmatlari bozoriga eng raqobatbardosh davlatlar qatorida kirib borishi maqsad qilingan.

Turizm industriyasi subyektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga yo'naltirilgan turizm faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini va normativ-huquqiy baza shakllanmoqda. Turizmning rivojlanishidagi barcha to'siq va g'ovlarga barham berish, viza va ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini,

pasport va bojxona nazoratini soddalashtirish, turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish va bozorga xos tarzda tartibga solish mexanizmini maqbullashtirilmoqda. Turizm sohasida tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish va turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni hamda, turizm sohasida statistik hisobga olish tizimini takomillashtirilmoqda.

Xususan, sohada me'yoriy-huquqiy jihatdan tartibga solishni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistonga sayohatlarni arzonlashtirish, yurtimizning barcha hududlarida turizmni va soha bilan bog'liq infratuzilmani rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va yangi turizm obyektlari tashkil etish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan 2018-2019 yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Shu bilan birga, turizm sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan qator xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli kelishuv va shartnomalar tuzilmoqda.

Tadbirkorlik subyektlariga yangi mehmonxonalar va turizm infratuzilmasining boshqa inshootlarini qurish, mavjudlarini modernizatsiya qilish uchun uzoq muddatli (15-yilgacha) kreditlar ajratish amaliyoti joriy qilinmoqda, bunda kredit va foizlarni qoplash uchun mehmonxonalarning moliyaviy tushumi va mavsumiy sharoitidan kelib chiqadigan talablar taqdim qilinmoqda.

Tadbirkorlik subyektlariga chet el valyutasidagi mablag'larni o'tkazish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar, terminallar ijarasi, erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi naqd pullarni inkassatsiya qilish va chet el valyutasida operatsiyalar amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xizmatlar uchun yig'implarning (komissiya to'lovlarining) maqbul miqdorlari belgilanmoqda.

2022 yil 1 yanvarga qadar mehmonxonalar boshqaruv xodimi sifatida jalb qilingan malakali xorijlik mutaxassislarning mehnatiga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov to'lashdan, shuningdek, mehmonxonalarga boshqaruv



xodimi sifatida jalb qilinadigan malakali xorijlik mutaxassislarning daromadlari jismoniy shaxslarning daromad solig'idan ozod etilmoqda. turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhit yaratildi. Aeroportlar, temir yo'l vokzallari, mehmonxonalar va boshqa turizm obyektlarida xalqaro to'lov tizimlari bilan ishlaydigan bankomat va terminallar miqdorini ko'paytirish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga to'lovlarni chet el valyutasida qabul qilish, jumladan, aloqasiz elektron to'lovlarni joriy qilish bo'yicha qo'shimcha qulayliklar yaratilmoqda.

2025 yilga borib turizmning O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushini - 2,3 foizdan (2017 y.) 5 foizga, xorijlik sayyohlar sonini esa 9-10 million nafarga, jumladan uzoq xorijiy mamlakatlardan keluvchi turistlar sonini 2 milliongacha oshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, turizm eksporti hajmini 950 million dollardan 2,2 milliard dollargacha oshirish kutilmoqda. Joylashuv vositalari sonini 850 tadan 3000 tagacha chiqarish rejalashtirilgan. Turoperatorlar soni ham 860 tadan deyarli ikki baravarga oshishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil» nomli ichki turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan dastur doirasida mahalliy sayyohlar sonini ham deyarli ikki baravarga - 14 milliondan 25 milliongacha oshirish ko'zda tutilmoqda.

Bozor munosabatlarining ravnaqi, erkin raqobat muhitining yaratilishi sharoitida barcha tarmoqlar qatori turizmga bo'lgan talabning ortib borishi tabiiy jarayondir. Barcha rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida daromadning salmoqli hissasi turizmga to'g'ri keladi. Turistlar didiga mos keladigan mehmonxonalar qurish, tarixiy yodgorliklar reklamasiga katta e'tibor berish, turizm servisini takomillashtirish, umuman turistlarni har tomonlama mukammal o'rganib, tadbirlar uyushtirish turizmning rivojlanishiga olib keladi.

Byudjetga valyuta tushishi hisobiga turizm iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi, mintaqalar infratuzilmasi, Yangi ishjoylari yaratish, o'zbek xalqining tarixiy va madaniy merosini tiklash imkonini beradi O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi ortishiga turizmning hissasi katta bo'lishi kerak. Buning uchun mamlakatimizda imkoniyatlar bor, yangi sifatli

turistik ob'ektlarni ko'paytirish va shu yo'l bilan mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish bir qator chora –tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Bu borada:

- Turizm tizmidagi marketing tadqiqotlarini tashkil etish;
- Turizm servisini takomillashtirish;
- Jahon andozalariga moslashtirish;
- Turistik ekskursiya xizmati ko'rsatish turi va sifatini rivojlantirish;
- Tarixiy obida va yodgorliklarni reklama qilish;
- Yangi turistik makonlarni izlab topish va tashkil etish;
- Qo'shimcha xizmatlar turlarini ko'paytirish va yaxshilash;
- Turizm bilan bog'liq barcha tarmoqlar: maishiy xizmat, aloqa, transport va hokazolar ishini takomillashtirish;
- Narxini belgilashda turizm bozori kon'yukturasiga katta e'tibor berish;
- Xodimlarni to'g'ri tanlash.

Fikrimizcha, turizm bozoridagi marketing tadqiqotlarini muntazam ravishda o'tkazish, talab, taklif, narx belgilashda kon'yukturani hisobga olish, jahondagi turli mamlakatlar turizmini o'rganish bu sohada yuqori sifatli, ijobiy natijalarga olib keladi.

O'zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 7,4 ming madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlar — “Xiva shahridagi Ichan-qal’a”, “Buxoro shahrining tarixiy markazi”, “Shahrisabz shahrining tarixiy markazi”, “Samarqand shahri” hududida joylashgan bo'lib, YUNESKO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

2010-2017 yillar davomida turizm xizmatlari eksporti hajmi ikki baravar oshdi va 2017 yilda 546,9 million AQSh dollari, 2018 yilda esa — 1 041 million AQSh dollarini tashkil etdi. 2016 yilgacha xorijiy tashrif buyuruvchilar sonining o'sish sur'ati o'rtacha yillik 8 foizni, 2017 yilda — 7 foizni tashkil qilib, 2,69 million nafardan oshdi. 2018 yil yakunlari bo'yicha respublikaga 5,3 million xorijiy turistlar tashrif buyurdi. Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va muhofaza qilishga qaratilgan choralar ko'rilgani natijasida, 2015 yilda 398 tani tashkil qilgan

turizm tashkilotlari soni 2018 yil yakuni bo'yicha 950 taga, mehmonxona xo'jaliklari soni — 661 tadan 900 taga yetdi.

Mustaqillik yillarida dastavval turizm rivojlanishining institusional va me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston so'nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi, shu jumladan Toshkent shahrida "Hayat Regency Tashkent" va "Lotte City Hotel Tashkent Palace" brendli mehmonxonalar ochilishi, Andijon, Urganch va Toshkent shahrida madaniy-ko'ngilochar bog'larning tashkil etilishi, "Angren-Pop" temir yo'li ochilishi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poyezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo'llari ochilishini aytib o'tish joiz.

Turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni echish, ish o'rinlarini ko'paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta'minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan.

2018-yilda kirib kelayotgan xorijiy turistlar sonini ikki baravarga oshirishning muhim omillari sifatida viza rejimi, O'zbekistonda bo'lish qoidalari hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish tartibi soddalashtirilgani, turizm sohasida infratuzilmaning rivojlanishi va turizm salohiyatini targ'ib qilish choralari ko'rilgani ko'rsatish mumkin, shu jumladan:

✓ qo'shimcha 9 ta (umumiy 18 ta) davlatga vizasiz rejim joriy etilgani, fuqarolariga kirish vizalarini berishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgan davlatlar soni 12 tadan 50 taga ko'paygani;

✓ elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tizimi ishga tushirilgani, O'zbekiston hududidan tranzit bilan o'tayotgan 101 davlat fuqarolariga O'zbekistonga vizasiz kirish, vaqtincha bo'lish va fuqarolarni o'tkazish punktlari orqali chiqib ketish tartibi joriy qilingani;

- ✓ xorijiy fuqarolarni respublika hududida vaqtinchalik ro'yxatga olish tartibi soddalashtirilgani, mazkur tartib "E-MEHMON" tizimi orqali to'liq elektron shaklga o'tkazilgani;
- ✓ mehmon uylarini sertifikatlash tartibi bekor qilingani;
- ✓ respublika hududiga olib kirilayotgan 8 va undan ko'proq yo'lovchi tashishga mo'ljallangan turistik klassdagi avtotransport vositalarini sertifikatlash tartibining yangi mexanizmi joriy etilgani turizm qonunchiligining tobora mukammallashib borayotganligiga misol bo'la oladi.

Bozor munosabatlarining ravnaqi, erkin raqobat muhitining yaratilishi sharoitida barcha tarmoqlar qatoriturizmga bo'lgan talabning ortib borishi tabiiy jarayondir. Barcha rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida daromadning salmoqli hissasi turizmga to'g'ri keladi. Turistlar didiga mos keladigan mehmonxonalar qurish, tarixiy yodgorliklar reklamasiga katta e'tibor berish, turizm servisini takomillashtirish, umuman turistlarni har tomonlama mukammal o'rganib, tadbirlar uyushtirish turizmning rivojlanishiga olib keladi.

Xalqaro turizmning rivojlanishi bilan ayrim mamlakatlarda ko'plab aholi ish bilan ta'minlanadi. Xalqaro turizm valyuta hisobidan foyda keltiribgina qolmay, u fuqarolar kam yashaydigan eski, ammo tarixiy joylarni katta va rivojlangan shaharlarga aylantirib yuborishi mumkin.

## **1.2. Milliy turizmni tartibga solish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari**

Mamlakatimizda milliy turizmni tartibga solishda asosiy bosh hujjat bu O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi hisolanadi. Undan so'ng esa 1999 yil 20 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risidagi qonunidir. Ushbu Qonunning maqsadi turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek turistlar va turistik faoliyat sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Milliy turizmni tartibga solish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bir qancha normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan.

– *O'zbekiston Respublikasining qonunlari.* Xususan, O'zbekiston Respublikasining “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi (1996y.), “Turizm to'g'risida”gi (1999y.), “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida”gi (1993y.), “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi, “O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasi to'g'risida”gi (1999y.), “Alohida faoliyat turlarini litsenziyalashtirish to'g'risida”gi (2000y.) qonunlari;

– *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;*

– *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;*

– *“O'zbekturizm”MKning (hozirda O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlatqo'mitasining) buyruqlari va qarorlari;*

– *Boshqa vazirlik va idoralarning huquqiy hujjatlari.*

Ayniqsa, turizm bozorida turistik faoliyatni huquqiy ta'minlash va tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari muhim o'rinni egallab kelmoqda. Hususan 2016 yil 2 dekabrda “O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4861-son farmoni milliy turizmni rivojlantirishdagi ulkan qadam bo'ldi.

Unda mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, turizm tarmog'ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ'ibot qilish, turizm sohasida O'zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish maqsadida: turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan.

Turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasini shakllantirish va izchil amalga oshirish, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohani barcha hududlarni va o'zaro bog'liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlantirishning yetakchi kuchiga aylanishi lozim bo'lgan iqtisodiyotni

diversifikatsiyalash, tarkibiy o'zgartirish va barqaror rivojlanishning qudratli vositasiga aylantirish, yaratiladigan yalpi ichki mahsulotda, mahalliy byudjet daromadlarida turizmning ulushini ko'paytirish, ish bilan bandlikni ta'minlash, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Turizm industriyasi sub'ektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga yo'naltirilgan turizm faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, turizmning rivojlanishidagi barcha to'siq va g'ovlarga barham berish, viza va ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini, pasport va bojxona nazoratini soddalashtirish, turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish va bozorga xos tarzda tartibga solish mexanizmini maqbullashtirish, turizm sohasida tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish va turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, turizm sohasida statistik hisobga olish tizimini takomillashtirish;

Turizm xizmatlarini tashkil etishda, eng avvalo, turistlar joylashtiriladigan joylarda, ovqatlanish punktlarida, respublika hududi bo'ylab harakatlanishda, turizm ob'ektlariga tashriflarni uyushtirishda turistlar va ekskursantlarning hayoti va sog'ligi xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini — ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, o'smirlar va yoshlar turizmini, oilaviy turizmni, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish hisobiga turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish, hududlarda yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish, ularni pasportlashtirish, turizm yo'nalishlari va turizm ob'ektlari bo'yicha yagona milliy reestrlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

Turizm faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni, birinchi navbatda, BMTning Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO), xorijiy mamlakatlarning turizm bo'yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlari — turizm xizmatlari mintaqaviy va jahon bozorlarining faol ishtirokchilari bilan hamkorlikni kengaytirish, O'zbekistonning turizm sohasida tartibga soluvchi universal xalqaro konvensiyalar va bitimlardagi ishtiroki, turizm faoliyati amaliyotiga xalqaro va davlatlararo standartlar va normalarni joriy etish;

Respublikaning barcha mintaqalarida zamonaviy jahon standartlariga, turistlarning ehtiyojlari va talablariga javob beradigan turizm industriyasi ob'ektlarini — mehmonxonalarini va joylashtirishning shu kabi vositalarini, umumiy ovqatlanish ob'ektlarini, transport-logistika tuzilmalarini, axborot markazlarini, madaniyat va sport muassasalarini jadal rivojlantirish, asosiy turizm yo'nalishlari bo'yicha yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini, yo'l bo'yi infratuzilmasini jadal qurish va rekonstruksiya qilish, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investorlarni keng jalb etish;

Xalqaro turizm rivojlanishi tendensiyalarini va zamonaviy marketing vositalari qo'llanilishini hisobga olgan holda, raqobatbardosh turizm mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish, ularni ichki va xalqaro turizm bozorlarida targ'ibot qilish bo'yicha strategiyani ishlab chiqish, qulay turizm axborot muhitini tashkil etish va rivojlantirish, keng reklama-axborot faoliyatini amalga oshirish, mamlakat hududlarida turizm axborot markazlari va chet elda turizm vakolatxonalarini ochish, Internet tarmog'idan faol foydalanish, har yili Toshkent xalqaro turizm yarmarkasini o'tkazish yo'li bilan turizm sohasida mamlakatimizning ijobiy qiyofasini shakllantirish;

Turizm tarmog'i uchun, ayniqsa menejment va marketing sohasida malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, gidlar (ekskursiya yetakchilari) tayyorlash, turizm faoliyati sub'ektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

«O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi negizida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etish.

Bir nechta mamlakatlar uchun 30 kunlik vizasiz rejimni joriy qilish va boshqa bir qator masalalar o'z yechimini topdi.

2017 yil 16 avgustdagi **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»**gi qarori ham bugungi kunda milliy turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Unga ko'ra; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilinishi davlatimiz tomonidan turizm sohasida amalga oshirilayotgan siyosatning mantiqiy davomi bo'lib, turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhitni yaratgan holda, eng samarali tartibni joriy etish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, yurtimizga keladigan turistlar oqimini ko'paytirish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan. Xususan, qaror bilan sohada me'yoriy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistonga sayohatlarni arzonlashtirish, yurtimizning barcha hududlarida turizmni va soha bilan bog'liq infratuzilmani rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va yangi turizm obyektlari tashkil etish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan 2018-2019 yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlardasturi tasdiqlandi.

Ayni paytda mamlakatimiz hududlarida zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu maqsadda dasturga muvofiq, Andijon viloyati Xonobod shahrida dam olish hududlari, Jizzax viloyati Forish va Arnasoy tumanlarida Aydar-Arnasoy ko'llari sohilida beshta yangi zamonaviy dam olish hududlari tashkil etish, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz va Qarshi shaharlarida to'rt yulduzli mehmonxonalar, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Chimyon tog' massivida mehmonxona majmuasi barpo etish, shuningdek,



Navoiy viloyatida To'dako'ning janubiy sohilida ichki turizm va Aydarko'l sohillarida xorijlik turistlar uchun plyajlar tashkil etish ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, qarorda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligida 2018-2019 yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga kiritilgan tadbirlarning amalga oshirilishini muntazam o'rganish tizimini joriy qilish belgilangan. Shu maqsadda:

Dastur ijrosi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish, vazirlik va idoralarning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish, yurtimizda turizm sohasi rivojiga to'sqinlik qilayotgan masalalarni tezkor ko'rib chiqish va hal qilish uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi.

Rejalashtirilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida, sifatli va to'liq ijro etilishini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari rahbarligida faoliyat yuritadigan turizmni rivojlantirish bo'yicha hududiy kengashlar tashkil etildi.

Qarorda turizmni rivojlantirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni bajarishga yo'naltirilgan qator topshiriqlar belgilangan:

✓ O'zbekistondagi muqaddas qadamjollarga ziyorat turizmi yo'nalishi bo'yicha sayyohlarni jalb qilish, bunda logistika, jumladan, charter reyslarni tashkil etish masalalarini hal qilish;

✓ Buxoro va Samarqand shaharlaridagi turizm hududlari tajribasi asosida Urganch, Toshkent shaharlari va Farg'ona viloyatida turizm hududlari, shuningdek, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida tog' klasterlarini bosqichma-bosqich tashkil etish;

✓ tashkil etilayotgan turizm hududlari va tog' (tog'oldi) turizm klasterlariga chet el sarmoyadorlarini jalb qilish, shuningdek, yangi mehmonxonalar qurish uchun yurtimizga yetakchi mehmonxona brendlarini taklif qilish yoki mamlakatimizdagi mehmonxona xo'jaliklarini ular boshqaruviga topshirish.

Shu munosabat bilan xorijlik turistlar uchun viza tartibotini soddalashtirish va ziyorat turizmini tashkil etish bo'yicha takliflarni muntazam kiritib borish

ko'zda tutilmoqda. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida xorijlik fuqarolar uchun viza va ro'yxatga olish tartibini bosqichma-bosqich soddalashtirish bo'yicha takliflarni ushbu davlatlar bilan ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanish darajasidan, jahon turizm bozorining konyunkturasi hamda xalqaro va mintaqaviy vaziyatdan kelib chiqqan holda tayyorlash bilan shug'ullanuvchi doimiy faoliyat yuritadigan ishchi guruh tuzilmoqda.

Shu bilan birga, turizm sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan qator xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli kelishuv va shartnomalar tuzishni tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Ushbu qaror mamlakatimiz turizm sohasining yanada rivojlanishiga yangi sur'at baxsh etib, unda belgilangan chora-tadbirlar ijrosiga xorijlik turistlar oqimi va turizm xizmatlari eksportini kengaytirish, tarmoqda yangi ish o'rinlari yaratish asosida aholining bandlik darajasini oshirish, mehmonxonalar, sayyohlarni joylashtirishning boshqa vositalari va turizm faoliyati subyektlari sonining ko'payishiga xizmat qiladi.

### **1.3. O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va me'yoriy hujjatlarning o'rni**

Xalqaro turistik munosabatlarning negiziy qoliplarini belgilab beruvchi asosiy institut – Butunjahon turizm tashkiloti (BTT, 2005 yildan BMBTT – Birlashgan millatlarning Butunjahon turizm tashkiloti; ingl. UNWTO – United Nations World Tourism Organization) xisoblanadi.

Xalqaro turistik ayriboshlash jarayonlarining kengayib borishi jahon miqyosida ixtisoslashtirilgan turistik tashkilotlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga sharoit yaratdi. Bugungi kunda jahon miqyosida 200 dan ortiq xalqaro turistik tashkilotlar faoliyat yuritishmoqda Ushbu turistik tashkilotlarning faoliyati turizmning dolzarb muammolarini o'rganish asosida turizmning barqaror

rivojlanishini ta'minlovchi muhim uslubiy ko'rsatmalar, tashkiliy-xuquqiy me'yorlar va tartibotlarni ishlab chiqishgam yo'naltirilgan.

## 1.1-jadval

### Hududiy turizm bozorida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning institutsional asoslari

<b>I. Xalqaro me'yor-institutlar (konvensiyalar, kodekslar, nizomlar, turizm sohasida hamkorlik, franchayzing to'g'risi dashartnomalar, autsoringga oid shartnomalar, konsession kelishuvga oid shartnomalar, boshqaruvga oid shartnomalar)</b>				
<b>Turizm tashkilotlarining birlashmalari</b>	<b>industriyasi notijoriy</b>	<b>Turizm tashkilotlarining birlashmalari</b>	<b>industriyasi tijoriy</b>	<b>Tashkiliy tuzilmalar</b>
Turizm industriyasi tashkilotlarining xalqaro notijoriy birlashmalari: Xalqaro mehmonxonalar assotsiatsiyasi <i>IHA</i> , Turagentlar assotsiatsiyalarining Butunjahon federatsiyasi <i>UFTAA</i> , Osiyo va tinch okeani mamlakatlari turistik assotsiatsiyasi <i>PATA</i> , Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi, Xalqaro turistik alyans <i>AIT</i> , Bo'sh vaqtda dam olish masalalar ibo'yicha umumjahon assotsiatsiyasi <i>WLRA</i> , Xalqaro turoperatorlar Federatsiyasi <i>IFTO</i> , Umumjahon turagentlar assotsiatsiyasi <i>WATA</i> , Xalqaro aviatranspor tassotsiatsiyasi <i>IATA</i> vah.k.	Turizm industriyasi tashkilotlarining Xalqaro tijoriy birlashmalari (mehmonxonalar to'ri, strategik alyans va xoldinglar), qo'shma korxonalar, xalqaro moliya-kredit institutlari (Evropa taraqqiyot banki, sug'urta tashkilotlarivah.k.)			Turizmni rivojlantirishga oid xalqaro tashkilotlar Butunjahon turistik tashkiloti <i>UNWTO</i> , Turizm va sayohatlar bo'yicha butunjahon Kengashi <i>WTTC</i> , Madaniyat, ilm-fan bo'yicha birlashgan millatlar tashkiloti <i>UNESCO</i> , Xalqaro fuqarolik aviatsiyasi tashkiloti <i>ICAO</i> , Xalqaro dengiz tashkiloti <i>IMO</i> , Yevropa turistik Komissiyasi <i>ETC</i> vah.k.
<b>II. Milliy me'yor-institutlar (Kostitutsiya, Fuqarolik Kodeksi, Qonunlar, Soliq kodeksi, litsenziya va sertifikatlashga oid mavjud me'yoriy-huquqiy xujjatlar, franchayzing to'g'risida shartnomalar, autsoringga oid shartnomalar, konsession kelishuvga oid shartnomalar, boshqaruvga oid shartnomalar, turizm sohasida hududlararo sheriklik bo'yicha shartnomalar)</b>				
O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi turistik tashkilotlarning notijoriy birlashmalari (Xususiy turistik tashkilotlar assotsiatsiyasi), turizm sohasida o'z-o'zini boshqaruvchi tashkilotlar.	O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi Turizm industriyasi tashkilotlarining tijoriy birlashmalari (strategik alyans, xoldinglar, franchayzing kelishuvidagi tashkilotlarvah.k.)			Qonun chiqaruvchi va vakolatli davlat organlari (Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Madaniyat va sport ishlari bo'yicha vazirlik, "O'zbekturizm"MK, Turizmni rivojlantirish qo'mitasi)
<b>III. Hududiy me'yor-institutlar (hududiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar, litsenziya va sertifikatlashga oid mavjud me'yoriy-huquqiy xujjatlar, franchayzing to'g'risida shartnomalar, autsoringga oid shartnomalar, konsession kelishuvga oid shartnomalar, boshqaruvga oid shartnomalar, sherikchilik mas'uliyati, ijtimoiy mas'uliyat, ijtimoiy</b>				

<b>javobgarlik)</b>		
Hududda faoliyat yurituvchi turistik tashkilotlarning notijoriy birlashmalari (Hududiy turistik klaster a'zolari Uyushmasi)	Samarqand viloyatida faoliyat yurituvchi turizm industriyasi tashkilotlarining tijoriy birlashmalari (strategik alyans, xoldinglar, franchayzing kelishuvidagi tashkilotlar, autsorcing kelishuvlari vah.k.)	Hududiy davlat hokimiyati organlari va jamoatchilik tashkilotlari (Viloyat statistika Boshqarmasi, Viloyat soliq Inspeksiyasi, "O'zbekturizm" MK hududiy bo'limi), Hududiy turistik klaster faoliyatini Muvofiqlashtirish Kengashi

\*Manba: Alimova M.T. "Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida)". Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. 2017 y.

Jahon xalqaro turistik tashkilotlarining asosiy maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat: turizm industriyasi tashkilotlari qiziqishlarini namoyon etish va himoya qilish; turizm sohasi siyosatini belgilash; jahon turizmi rivojlanishining tarkibiy unsurlarini shakllantirish; tashkilot a'zo mamlakatlari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatish hamda ushbu mamlakatlarda turizm industriyasining rivojlanish muammolarini hal qilishga va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida amaliy yordam ko'rsatishdan iborat hisoblanadi.

Ahamiyatli tomoni shundaki, xalqaro tashkilotlar (assotsiatsiya, uyushma, alyans shaklida) o'z faoliyatlarini o'zaro hamkorlik va hamjihatlik tamoyillari asosida tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi turizm sohasi faoliyati birqator qonuniy aktlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirilmoqda. Mustaqillikning ilk yillaridan bugungi kunga qadar, mamlakatimizda zamonaviy sivilizatsiyalashgan turizm bozorining huquqiy asoslarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, mamlakatimizda turistik faoliyat qonunchiligi xalqaro huquq tamoyillari va me'yorlari asosida ishlab chiqilgan.

Mamlakatimiz turizm sohasida tashkiliy-huquqiy muhitni shakllanishi va rivojlanishining asosiy tendensiyasi nafaqat turizm tashkilotchilarini faoliyati va turistik mahsulot iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq

masalalarni, balki xizmat ko'rsatish sifati, turizmda xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro standartlarga amal qilish masalalarini mujassam etgan turizm tarmog'ining fundamental va keng qamrovli qonunchilik negizini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo'ldi. Mamlakatimizda turizm sohasining institutsional (me'yoriy-huquqiy jihatlari) asosini tizimli tarzda quyidagicha aks ettirish mumkin (1.1-rasm).

Hududiy turizm bozorida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartiblashtiruvchi me'yoriy-huquqiy institutlar tizimi tuzilmasining milliy darajasiga oid qonunlar, me'yoriy-huquqiy xujjatlar quyidagilardan iborat:



**1.1-rasm. Turizm sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi<sup>4</sup>**

*O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi.* Xususan, ushbu me'yoriy hujjatda har bir inson va fuqaroning huquq va erkinliklari belgilab berilgan bo'lib, jumladan, unda respublika hududida birdan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish (O'zbekiston Respublikasining

<sup>4</sup> Alimova M.T. "Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida)". Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. 2017 y.

konstitutsiyasi VII-bob, 28-modda), barcha fuqarolar dam olishi (IX-bob, 38-modda), har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi (IX-bob, 40-modda), madaniyat yutuqlaridan foydalanish kabi huquqlari kafolatlangan (IX-bob, 42-modda)<sup>5</sup>;

***Turizm sohasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi  
institutsional muhit***

– *O‘zbekiston Respublikasining qonunlari.* Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi (1996y.), “Turizm to‘g‘risida”gi (1999y.), “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi (1993y.), “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi to‘g‘risida”gi (1999y.), “Alohida faoliyat turlarini litsenziyalashtirish to‘g‘risida”gi (2000y.) qonunlari;

– *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;*

– *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;*

– *“O‘zbekturizm” MKning (hozirda O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining) buyruqlari va qarorlari;*

– *Boshqa vazirlik va idoralarning huquqiy hujjatlari.*

Ayniqsa, turizm bozorida turistik faoliyatni huquqiy ta‘minlash va tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari muhim o‘rinni egallab kelmoqda O‘z navbatida, “O‘zbekturizm” MK (turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi) buyruqlari va farmoyishlari turizmning yaxlit tizim sifatidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi me‘yor-institutlar sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda turizm sohasining huquqiy ta‘minotini takomillashtirish borasida bir qator masalalar o‘z yechimlarini kutmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuniga zamonaviy turistik munosabatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib, o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir

Xalqaro miqyosda turistik faoliyatni tartibga solish amaliyoti davlatlarning turizm masalalari bo'yicha xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar va shartnomalarga qo'shilishi, ularning xalqaro turistik dasturlar va loyixalardagi ishtiroki, hukumatlararo xamkorlik shartnomalarini tuzishi xamda turizmni rivojlantirishdagi milliy konsepsiyalarni shakllantirishi va milliy turizmga oid qonunchilikni ishlab chiqishda xalqaro xujjatlardagi asosiy tamoyil va qoidalarni inobatga olishi orqali amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda turizm sohasiga oid ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda xalqaro huquqiy aktlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularni bir nechta guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin.

Ushbu me'yoriy aktlarning birinchi guruhiga O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan turizm sohasida hamkorlik qilish bo'yicha kelishuvlari hamda turizm sohasidagi xalqaro idoralararo shartnomalar kiradi.

Xalqaro me'yoriy aktlarning ikkinchi guruhiga xalqaro konvensiyalar kiritilib, xalqaro turizm bozorining sub'ektlari o'rtasidagi shartnomaviy-kelishuvga oid aloqa va munosabatlarni tartibga soluvchi hamda xalqaro miqyosda tan olingan qoidalarni o'rnatuvchi me'yoriy-institut sifatida xizmat qiladi.

Xalqaro me'yoriy aktlarning uchinchi guruhiga BMT kabi xalqaro tashkilotlarning, BMT tizimidagi ixtisoslashtirilgan muassasalarning, masalan, Butunjahon Turizm Tashkilotining va boshqa xalqaro tashkilotlarning qarorlari (rezolyusiyalari) hamda turizm bo'yicha Xalqaro konferensiyalarda qabul qilingan xalqaro deklaratsiyalar kiritiladi.

Xalqaro me'yoriy aktlarning to'rtinchi guruhiga BTT ning hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning turizm sohasiga oid tavsiyanomalari kiritiladi (masalan, BTT ning turistik statistikasi soddalashtirishga oid tavsiyalari).

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda turizm faoliyatiga asosiy davlat siyosati darajasida qaraldi. Soha rivoji uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy mexanizm vujudga keltirilib, muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va bugungi kunga qadar takomillashtirilib borilmoqda. Bularning barchasi, hozirgi kunga kelib, O'zbekiston Respublikada turizm sohasini davlat tomonidan tartibga

solishning barcha zaruriy institutlari shakllanishi va takomillashib borishining asosini tashkil etadi

## 1.2-jadval.

### Xalqaro turistik tashkilotlar\*

<p>Butun jahon sayoxatlar va turizm Kengashi (<i>WTTC – The World Travel &amp; Tourism Council</i>)</p>	<p>Rasmiy tarzda 1990- yilda tashkil etilgan. <i>WTTC</i> – jahon turizm industriyasini mingdan ortiq kompaniyalarining rahbarlari va peshqadamlarining forumi hisoblanadi.</p> <p>Asosiy faoliyat yo'nalishlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– <i>Xalqaro turizm sohasiga oid global miqyosdagi tadbirlarni amalga oshirish</i> (<i>WTTC</i> turizm tarmog'ining jahon iqtisodiyotidagi ahamiyatini oshirishda va turizm industriyasiga turli xil mamlakatlar hukumatlarining e'tiborlarini jalb etishda o'z a'zolari nomidan vakil hisoblanadi);</li> <li>– <i>Hududiy faoliyatni amalga oshirish</i> (<i>WTTC</i> hududiy hukumatlar, hududiy turizm sohasining peshqadamlari bilan turizm industriyasining yo'lidagi to'siqlarni aniqlash va bartaraf etish yo'nalishida hamkorlik qiladi);</li> <li>– <i>Iqtisodiy tadqiqotlar olib borish</i> (<i>WTTC</i> tomonidan har yili 181 mamlakat doirasida turizm industriyasining rivojlanish holatini baholash va uning rivojlanishini istiqbollashtirishga qaratilgan makro-iqtisodiy tadqiqotlar olib boriladi. O'zining 20 yillik faoliyati davomida ushbu tadqiqotlarga 5 mln. \$dan ziyod mablag' sarf etildi).</li> </ul>
<p>Xalqaro turizm alyansi (<i>AIT – Alliance Internationale de Tourisme</i>)</p>	<p>1919 yilda tashkil topgan. <i>AIT</i> – milliy avtomobil assotsiatsiyalari va turistik klublarni tashkilotning asosiy a'zolari sifatida, shuningdek turistlar assotsiatsiyalaridan iborat milliy federatsiyalarni individual a'zolar sifatida o'zida birlashtiruvchi xalqaro turistik tashkilot hisoblanadi.</p> <p>Tashkilotning asosiy maqsadi xalqaro turizmning barcha turlarini, ayniqsa, avtoturizmni rivojlantirishdan iborat. Tashkilotning a'zolari avtoturistlarga</p>
	<p>xizmat ko'rsatish tizmini takomillashtirish, bojxona rasmiyatchiligini soddalashtirish, avtotrassalar va yo'l-transport infratuzilmasini takomillashtirish, huquqiy xizmatlar ko'rsatish va sug'urta masalalari bo'yicha seminarlar va kengashlarni tashkil etish va o'tkazish bilan shug'ullanadi. Tashkilotga a'zo klublar faoliyati to'g'risida, ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar turlari to'g'risidagi qo'llanmalar, avtomobil yo'llari sxemalari va kartalar nashr etiladi.</p> <p>Bugungi kunda tashkilot 84 mamlakatning 140ga yaqin turistik tashkilotlari, umumiy soni 60 millionga yaqin a'zolarini birlashtiradi.</p>
<p>Butunjahon turistik agentlar assotsiatsiyalari federatsiyasi (<i>UFTAA – Universal Federation of Travel Agents' Associations</i>)</p>	<p>Tashkilot 1966 yilda ikkita xalqaro tashkilotning, ya'ni 1919 yildan buyon faoliyat yuritib kelgan Turistik agentliklarning Xalqaro assotsiatsiyasi (<i>Federation Internationale des Agences de Voyages FIAV</i>) va 1964 yilda tashkil etilgan Turistik agentliklar assotsiatsiyalarining Xalqaro tashkilotining (<i>UOTAA – Universal Organization of Travel Agents' Associations</i>) birikishi natijasida tashkil topgan. <i>UFTAA</i> – milliy turistik assotsiatsiyalar va tashkilotlarni asosiy a'zolar sifatida, shuningdek turistik agentliklar, mehmonxonalar, transport tashkilotlari, o'quv muassasalarini assotsiatsiyalashtirilgan a'zolar sifatida o'zida mujassamlashtirgan xalqaro turistik tashkilot hisoblanadi. Tashkilot 80dan ortiq mamlakatlarning 80ta milliy turistik assotsiatsiyalari va 1400ga yaqin individual a'zolarini birlashtirgan.</p> <p>Tashkilotning asosiy maqsadi milliy turagentlar assotsiatsiyalarini tashkil etishga ko'maklashish va qo'llab quvvatlash, ularga yuridik, moliyaviy, moddiy-texnik yordam berish hisoblanadi.</p>
<p>Xalqaro kongresslar va konvensiyalar assotsiatsiyasi (<i>ICCA – International</i></p>	<p>1964 yilda tashkil topgan. <i>ICCA</i> – Turagentlar, kongress-markazlar, mehmonxonalar va transport tashkilotlarini birlashtiruvchi xalqaro turistik tashkilot.</p> <p>Assotsiatsiyaning asosiy maqsadi kongress-turizmni rivojlantirishga qaratilgan</p>



<b>Congress &amp; Convention Association)</b>	hisoblanadi
Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi ( <b>IATA – International Air Transport Association</b> )	1919 yilda asos solingan hamda 1945 yilda qayta tashkil etilgan. <i>IATA</i> – xalqaro miqyosda reyslarni amalga oshiruvchi aviatsiya kompaniyalarining xalqaro assotsiatsiyasi hisoblanadi. Tashkilotning asosiy maqsadi Xalqaro fuqarolar aviatsiyasi tashkiloti <i>ICAO</i> ning siyosatini amalga oshirish. Asosiy vazifasi – yo'lovchilar, pochta va yuklarni dunyoning bir nuqtasidan boshqasiga turli xil kombinatsiyadagi marshrutlardan foydalangan holda ko'chirishga ko'maklashish hisoblanadi. Bu vazifani tashkilot havo transporti kompaniyalari faoliyatini tartibga solish va muvofiqlashtirish, ya'ni tashkilotning barcha a'zolari uchun yagona qoida va tartibotlarni kiritish, xalqaro marshrutlar yo'lovchilarni tashish bo'yicha kelishilgan tariflarni o'rnatish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali amalga oshiradi. Bugungi kunda 259ta xalqaro miqyosda faoliyat olib boruvchi avikompaniyalar ushbu tashkilotning a'zolari hisoblanadi.
Xalqaro fuqarolar aviatsiyasi tashkiloti ( <b>ICAO – International Civil Aviation Organisation</b> )	1944 yilda tashkil topgan. <i>ICAO</i> – BMT qanoti ostida faoliyat yurituvchi va o'z faoliyatini “millatlar tengligi” tamoyili asosida amalga oshiruvchi halqaro tashkilot. <i>ICAO</i> ning asosiy vazifalari — xalqaro standartlar va me'yorlarga asosan xavfsiz, yuqori ixtisoslashtirilgan, iqtisodiy jihatdan samarali havo transportida tashish xizmatlari bozorining rivojlanishini ta'minlashdan iborat.
Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari turistik assotsiatsiyasi ( <b>PATA – Pacific Asia Travel Association</b> )	1951 yilda tashkil topgan. <i>PATA</i> – 34ta mamlakatning milliy davlat turistik tashkilotlari, transport va mehmonxonalar assotsiatsiyalari va turizm industriasining boshqa tashkilotlarini namoyon etuvchi 2200ta a'zolari mujassamlashtirgan hududiy miqyosdagi nodavlat xalqaro turistik tashkiloti hisoblanadi. hududiy miqyosdagi xalqaro turistik tashkilot hisoblanadi. Tashkilotning asosiy maqsadi Tinch okeani va Osiyo hududida turizmning rivojlanishiga ko'maklashish hisoblanadi. Tashkilot a'zolari turizmning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muammolar borasida o'zaro fikr almashadilar,
	Tinch okeani va Osiyo hududida uning rivojlanish istiqbollari borasida hamkorlikda tadbirlar amalga oshiradilar. Assotsiatsiya faoliyati davomida o'z a'zolarining marketing tadqiqotlari, ilmiy ishlanmalari va turizm sohasini rivojlanishi bilan bog'liq boshqa faoliyatlarini muhim, aniq ma'lumotlar bilan ta'minlash uchun xizmat qilmoqda.
Turizm bo'yicha ilmiy ekspertlar xalqaro assotsiatsiyasi ( <b>AIEST, International Association of Scientific Experts in Tourism</b> )	1951yilda tashkil bo'lgan. <i>AIEST</i> – ilmiy jamiyat xususiyatiga ega halqaro turistik tashkilot. Asosiy vazifasi – turizm uchun malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha ixtisoslashgan ilmiy turistik muassasalar va markazlar faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash, turizm yo'nalishida tajriba almashish chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali o'z a'zolarining ilmiy-izlanuvchilik faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash.
Evropa turistik komissiyasi ( <b>ETC, European Tourism Commission</b> )	1948 yilda tashkil topgan. 23ta Evropa davlatlari ushbu turistik tashkilot a'zolari hisoblanadi. Asosiy maqsadi – Evropada ichki va kiruvchi turizm rivojlanishini qo'llab-quvvatlash chora tadbirlarini amalga oshirish.
Turistik agentlar xalqaro assotsiatsiyasi ( <b>WATA World Association of Travel Agencies</b> )	1949 yilda tashkil topgan. Ushbu assotsiatsiyada turli xil davlatlar turistik agentlari belgilangan shakldagi vakillik asosida ishtirok etadilar. Asosiy maqsadi – assotsiatsiyaga a'zo turagentlar faoliyatini rag'batlantirish hamda tuoperatorlar va transport tashkilotlari oldidida ularning manfaatlarini himoya qilish. Bugungi kunda 93ta mamlakatda 286ta a'zolarini o'zaro birlashtiradi.
Xalqaro mehmonxonalar va restoranlar assotsiatsiyasi ( <b>IH&amp;RA International Hotel and Restaurant</b> )	Xalqaro mehmonxona egalari assotsiatsiyasi negizida 1946 tashkil topgan. Asosiy vazifasi – turistlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan milliy mehmonxonalar assotsiatsiyalari hamda alohida mehmonxona va restoranlarni birlashtirish, shuningdek mehmonxona va restoran egalari shaxsiy huquq va manfaatlarini himoya qilish.

<i>Association)</i>	
Xalqaro mehmonxonalar assotsiatsiyasi ( <b>IHA International Hotel Association</b> )	Asosiy vazifasi – turistik xizmatlar sifatini oshirish, xizmat ko'rsatish yangi standartlarini va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish, mehmonxona personalining xizmat ko'rsatish saviyasini oshirish masalalari bo'yicha hamkorlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida mehmonxona industriyasi tashkilotlarini birlashtirish.
Turizm sohasida kasbiy ta'lim bo'yicha Xalqaro assotsiatsiya (AMFORT <b>L'Association mondiale pour la formation touristique</b> )	1969 yilda tashkil etilgan. Turistik ta'lim yo'nalishida yangi texnik vositalarni joriy etish, ta'lim dasturlarini standartlashtrish va tartibga solish, mutaxassis kadrlarni tayyorlash usullarini takomillashtirish maqsadida 1969 yilda tashkil etilgan. Turli xil davlatlar tadqiqot markazlari, o'quv muassasalari, rasmiy turistik tashkilotlar va turizm sohasi mutaxassislari ushbu xalqaro tashkilot a'zolari hisoblanadi. AMFORT tashabbusi bilan turizm sohasi mutaxassisi Xalqaro guvohnomasi chiqarilgan.
Xalqaro turoperatorlar assotsiatsiyasi ( <b>IFTO International Federation of Tour Operators</b> )	Turli xil davlatlar milliy turoperatorlar assotsiatsiyalari va alohida turoperatorlik tashkilotlari ushbu halqaro tashkilot a'zolari hisoblanadi. Asosiy maqsadi – xalqaro turizmni rivojlantirish masalalarining birgalikda echimlarini aniqlash hamda turoperatorlar huquq va manfaatlarini himoya qilish.

\* Manba: Alimova M.T. "Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida)". Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. 2017 y.

## **2-BOB. O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOSHQARUV TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **2.1. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish qo'mitasining turizmni boshqarish va tartibga solishdagi ro'li**

O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bu mamlakatdagi turizmni boshqarishdagi bosh organ hisolanib, turizmni rivojlantirish qo'mitasi mavjud "O'ZBEKTURIZM MK" negizida 2016 yil 2 dekabrda PF-4861 son qarori asosida tashkil etildi.

Turizmni rivojlantirish qo'mitasining vazifalari va funksiyalari:

➤ mamlakatning turizm salohiyatini tubdan oshirishga, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berishga, turizm sohasida yagona davlat siyosati o'tkazilishiga yo'naltirilgan turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasi shakllantirilishi va amalga oshirilishini ta'minlash;

➤ turizm xizmatlarining tashqi va ichki bozorlarida marketing tadqiqotlari olib borishga, tarixiy-madaniy merosni keng targ'ib qilishga, O'zbekiston Respublikasining turizm qiyofasini saqlab qolish va rivojlantirishga, milliy turizm mahsulotlari va brendlari xalqaro turizm bozorlariga kirib borishiga yo'naltirilgan faol reklama-axborot siyosatini amalga oshirish;

➤ ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlari ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish va ularning amalga oshirilishi monitoringi, turizm turlarining keng doirasini jadal rivojlantirish, xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan turizm infratuzilmasini rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni, shuningdek xalqaro moliya institutlari va boshqa tashkilotlarning kreditlari va grantlarini jalb etish;

➤ turizm faoliyati rivojlanishini muvofiqlashtirish, mintaqalarda yangi turizm yo'nalishlari tashkil etilishini ta'minlash, ularni pasportlashtirish, turizm yo'nalishlari va turizm ob'yektlari bo'yicha yagona milliy reyestrlarni shakllantirish;

➤ turizm xizmatlarini tashkil etishda, eng avvalo, turistlar joylashtiriladigan joylarda, ovqatlanish punktlarida, respublika hududi bo'ylab harakatlanishda va turizm ob'yektlariga tashriflarni uyushtirishda turistlarning xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlashga yo'naltirilgan turizm xizmatlari ko'rsatish sifati va xavfsizligi standartlari ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish,

➤ turizm sohasida xizmatlarni litsenziyalash va sertifikatlashtirish hamda litsenziyalanadigan va sertifikatlashtiriladigan turizm xizmatlarining belgilangan talablar va standartlarga muvofiqligi bo'yicha inspeksiya nazoratini amalga oshirish;

➤ turizm sohasini davlat tomonidan va bozor munosabatlari asosida tartibga solishni maqbullashtirish va turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish, turizmni rivojlantirishga qarshilik qilayotgan barcha g'ov va to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish, turizm sohasida tadbirkorlik faolligi oshishiga har tomonlama ko'maklashish, ushbu sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish.

➤ turizm faoliyati sohasida birinchi navbatda BMTning Butunjahon turizm tashkiloti, turizm bo'yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlar hamda turizm sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xorijiy kompaniyalar bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xalqaro va davlatlararo standartlar va normalarni turizm faoliyati va amaliyotiga joriy etish;

➤ turizm faoliyati sub'yektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni yuqori sifat darajasida tashkil etish, tarmoq turizm fanlarini rivojlantirishga ko'maklashish.

## **2.2. 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi va uning soha rivojlanishidagi imkoniyatlari**

2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi qulay iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish

bo'yicha, olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o'rnini va ulushini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni o'z ichiga oladi. Daslab Turizm sohasining bugungi kundagi holati tahlilini ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 7,4 ming madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlar "Xiva shahridagi Ichan-qal'a", "Buxoro shahrining tarixiy markazi", "Shahrisabz shahrining tarixiy markazi", "Samarqand shahri" hududida joylashgan bo'lib, YUNESKO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

2010 - 2017 yillar davomida turizm xizmatlari eksporti hajmi ikki baravar oshdi va 2017 yilda 546,9 million AQSh dollari, 2018 yilda esa 1 041 million AQSh dollarini tashkil etdi. 2016 yilgacha xorijiy tashrif buyuruvchilar sonining o'sish sur'ati o'rtacha yillik 8 foizni, 2017 yilda 7 foizni tashkil qilib, 2,69 million nafardan oshdi. 2018 yil yakunlari bo'yicha respublikaga 5,3 million xorijiy turistlar tashrif buyurdi. Xususiyl sektorini qo'llab-quvvatlash va muhofaza qilishga qaratilgan choralar ko'rilgani natijasida, 2015 yilda 398 tani tashkil qilgan turizm tashkilotlari soni 2018 yil yakuni bo'yicha 950 taga, mehmonxona xo'jaliklari soni 661 tadan 900 taga yetdi.

So'nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi, shu jumladan Toshkent shahrida "Hyatt Regency Tashkent" va "Lotte City Hotel Tashkent Palace" brendli mehmonxonalar ochilishi, Andijon, Urganch va Toshkent shahrida madaniy-ko'ngilochar bog'larning tashkil etilishi, "Angren-Pop" temir yo'li ochilishi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poyezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo'llari ochilishini aytib o'tish joiz.

Brinchidan, turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni echish, ish o'rinlarini ko'paytirish, hududlar

diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta'minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan.

2018 yilda kirib kelayotgan xorijiy turistlar sonini ikki baravarga oshirishning muhim omillari sifatida viza rejimi, O'zbekistonda bo'lish qoidalari hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish tartibi soddalashtirilgani, turizm sohasida infratuzilmaning rivojlanishi va turizm salohiyatini targ'ib qilish choralari ko'rilgani ko'rsatish mumkin, shu jumladan:

- ✓ qo'shimcha 9 ta (umumiy 18 ta) davlatga vizasiz rejim joriy etilgani, fuqarolariga kirish vizalarini berishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgan davlatlar soni 12 tadan 50 taga ko'paygani;

- ✓ elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tizimi ishga tushirilgani, O'zbekiston hududidan tranzit bilan o'tayotgan 101 davlat fuqarolariga O'zbekistonga vizasiz kirish, vaqtincha bo'lish va fuqarolarni o'tkazish punktlari orqali chiqib ketish tartibi joriy qilingani;

- ✓ xorijiy fuqarolarni respublika hududida vaqtinchalik ro'yxatga olish tartibi soddalashtirilgani, mazkur tartib "E-MEHMON" tizimi orqali to'liq elektron shaklga o'tkazilgani;

- ✓ mehmon uylarini sertifikatlash tartibi bekor qilingani;

- ✓ respublika hududiga olib kirilayotgan 8 va undan ko'proq yo'lovchi tashishga mo'ljallangan turistik klassdagi avtotransport vositalarini sertifikatlash tartibi yangi mexanizmi joriy etilgani hamda buning natijasida 2018-yilda turistik klass avtotransport vositalarining parki 128 donaga ko'paytirilgani ko'rishimiz mumkin.

Ikkinchidan, turizmni rivojlantirish konsepsiyasida turizm sohasini

rivojlantirishning asosiy maqsadlari va bosqichlari belgilab berilgan bo'lib, 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirishning maqsadlari turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini oshirish hamda turistik infratuzilmani, shu jumladan xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va samarali reklama-marketing

ishlarini olib borish evaziga takomillashtirish orqali yuqorida ko'rsatilgan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish ko'zda tutilgan.

Turizm sohasini rivojlantirishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat: 2019- 2025 yillarda turizmni rivojlantirish uchun mustahkam qonunchilik bazani yaratishga qaratilgan institutsional islohotlar, infratuzilmani modernizatsiyalash va mamlakat brendini targ'ib qilish;

2019-2025 yillarda mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushini ko'paytirish. Ushbu yo'nalishda zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning turizm salohiyatini targ'ib qilish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha (2017 yil yakuni bo'yicha 2,3%) yetkazish, shuningdek, 2025 yil yakuniga qadar 9 milliondan ortiq turistlarni, shu jumladan uzoq xoriждан 2 million turistni jalb qilish belgilab quyilgan.

Uzoq istiqbolda O'zbekiston turizmi milliy iqtisodiyotdagi yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, mintaq va dunyo turistik xizmatlari bozoriga eng raqobatbardosh davlatlar qatorida kirib borishi mumkin.

Uchinchidan, Turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

Bu sohasida qisqa muddatli istiqbolga mo'ljallangan maqsadli vazifa va ustuvorlardan kelib chiqib, quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlarni faol amalga oshirish ko'zda tutilgan:

1) turistik faoliyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni joriy etish, shu jumladan:

✓ turistik faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish, bunda qonunchilik asosini kuchaytirish va turizm sohasida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlovchi normalarni yagona hujjatga birlashtirishni nazarda tutish;

✓ respublikaga asosiy turistik oqimini ta'minlovchi, iqtisodiy barqaror va xavfsiz davlatlarning fuqarolari uchun viza rejimini yanada liberallashtirish bo'yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlarni amalga oshirish;

✓ xususiy sektorni jalb qilish va tadbirkorlar faolligini rag'batlantirish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, sohani barqaror rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

✓ davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va keng qo'llash.

Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

mamlakat normativ-huquqiy bazasini xalqaro standartlar va me'yorlar bilan uyg'unlashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiyotda turizm sohasining rolini oshirish uchun iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, shu jumladan 2025 yilda turizm eksportini 951 mln. AQSh dollaridan 2,2 mlrd. AQSh dollarigacha oshirishni ta'minlaydi.

2) turistlarning ehtiyojlari va talablarini inobatga olgan holda, mamlakatning barcha hududlarida turizm infratuzilmasi va yondosh infratuzilmani rivojlantirish, xususan:

✓ talabni inobatga olgan holda, yangi joylashtirish vositalarini qurish va mavjudlarni rekonstruksiya qilish bilan bir qatorda yondosh infratuzilmani (umumiy ovqatlanish obyektlari, transport-logistika tuzilmalari, ko'ngilochar maskanlar industriyasi, madaniy va sport muassasalari, turistik namoyish obyektlari va boshqalarni) rivojlantirishga qaratilgan turizm industriyasini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

✓ mehmonxonalar va boshqa turizm infratuzilmasi obyektlarini qurishga oid loyihalarni amalga oshirish mexanizmini soddalashtirish, tadbirkorlarga o'z xizmatlarining sifatini oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, jahonga mashhur mehmonxona biznesi brendlarini O'zbekistonga jalb qilishni rag'batlantirish;

✓ joylashtirish vositalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, yirik, o'rta, kichik mehmonxonalar va xostellarni qurishni rag'batlantirish hamda mavjud mehmonxonalarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratish;

✓ zamonaviy xalqaro standartlarni hisobga olgan holda ko'cha infratuzilmasini (o'tish yo'llari, trotuarlar, kichik arxitektura shakllari, sanitar-



gigiyenik shoxobchalar, jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar uchun obodonlashtirish elementlari va boshqalarni), shu jumladan turizm-rekreatsioon markazlarda yaratish;

✓ turizm navigatsiyasining yagona unifikatsiyalashtirilgan tizimini joriy etish va rivojlantirish, ko'chalarda, hududlarda, turizm namoyishi obyekti hisoblangan bino va inshootlar ichida, transport vositalari va tarmoqlarida hamda avtomobil yo'llarida turizm navigatsiyaning unifikatsiyalashtirilgan ko'rsatkichlarini o'rnatish.

Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

✓ turoperatorlar soni 860 dan 1 676 tagacha hamda turizm sohasining boshqa subyektlari sonini oshirish evaziga xalqaro standartlarga mos turizm infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek joylashtirish vositalari soni 850 dan 3000 tagacha o'sishini;

✓ turizm xizmatlari sifati, xilma-xilligi va eksport hajmining o'sishi, jahon bozorining yirik vakillari (brendlarini) jalb qilish va xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishni ta'minlaydi.

3) transport logistikasini rivojlantirish, tashqi va ichki yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, shu jumladan:

✓ yo'lovchilar tashuvini rivojlantirish, shu jumladan doimiy transport qatnovini yo'lga qo'yish, turli transport vositalarining qulay tutash bog'lamalarini tashkil etish, turizm markazlarini birlashtiruvchi respublika va mintaqaviy ahamiyatga molik yangi avtomobil yo'llarini qurish va mavjudlarni rekonstruksiya qilish, tutash yo'l infratuzilmasi (kemping va servis xizmat ko'rsatish obyektlari, umumiy ovqatlanish markazlari, tibbiy va sanitariya shoxobchalarini) yaxshilashga qaratilgan davlatlararo shartnomalar bilan tasdiqlangan dasturni shakllantirish, transport tariflarini optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

✓ yirik xalqaro aviatashuvchilarni jalb qilish, budjet aviatashuvlarni tashkil qilish;

✓ respublika hududlari o'rtasida aviaqatnovlarni rivojlantirish;

✓ yangi temir yo'llarni qurish va mavjudlarni takomillashtirish, yuqori tezlikda harakatlanadigan elektropoyezdlardan foydalanishni kengaytirish;

✓ sifatli transport xizmatlarini ko'rsatish uchun transport vositalarining harakatlanuvchi tarkibini muntazam yangilab borish.

Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

✓ xalqaro parvozlarda va to'g'ridan-to'g'ri, shu jumladan mamlakatning tarixiy shaharlariga reyslarning geografiyasini kengaytirish, aviaqatnovlar sifatini oshirish va qiymatini pasaytirish;

✓ o'z ichiga havo, temir yo'l va avtomobil transportini qamrab olgan qulay va arzon transport logistikasini ta'minlash, respublika hududlariga va xorijiy davlatlarga sayohatlarni amalga oshirishda qulay shart-sharoitlar yaratish;

✓ mamlakatni yo'lovchilar tashish sohasida yirik mintaqaviy transport "xabi"ga aylantirishni ta'minlaydi.

4) quyidagilarni ta'minlash maqsadida turizm bozorining turli qatlamlariga mo'ljallangan turistik mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiya qilish orqali mavsumiy omillar ta'sirini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish:

✓ turizm yo'nalishlarini tizimlashtirish va pasportlashtirishni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining marshrutlari tarmog'i va turizm namoyishi obyektlarining yagona axborot bazasini shakllantirish;

✓ O'zbekiston Respublikasining xilma-xil hamda yilning turli fasllarida jozibador va raqobatbardosh turistik mahsulotlari, shu jumladan mamlakat hududlarida tematik turistik zonalari va klasterlarni yaratish orqali hamda turizmning istiqbolli turlari (ziyosat, ma'rifiy, ekologik, etnografik, gastronomik, sport, davolovchi-sog'lomlashtiruvchi, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik va boshqalarni) hisobga olgan holda, yangi turizm dasturlarini ishlab chiqish;

✓ zamonaviy va raqobatbardosh hunarmandchilik-suvener mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda "MICE — turizm"ni rivojlantirish bo'yicha dasturiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

✓ bir nechta turizm turlarini birlashtirish hamda turli-tuman tadbirlar bilan boyitish orqali taklif etiladigan turistik turlarining jozibadorligini oshirish, mamlakat bo'ylab turistik turlarining o'rtacha davomiyligini kamida ikki sutkaga oshirib, 8 sutkagacha yetkazish, shaharlar bo'yicha esa amaldagi 1,5 — 2,0 sutkadan 3 sutkagacha ko'paytirish;

✓ turizmning barqaror rivojlanishi va mamlakatimizga takroriy tashriflar soni oshishini ta'minlaydi.

5) respublika ichida turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan turizm faoliyati subyektlarining faolligini rag'batlantirishni ta'minlaydigan ichki turizmni rivojlantirish, xususan:

✓ turistik-ekskursion xizmatlar iste'moliga aholining keng qatlamlarini jalb qilish, ichki turizm harakatining ommaviyligini qayta tiklash, turizm xizmatlarini ishlab chiqish hamda mavsumiy notekislik oqibatlarini yumshatishda keng miqyosli ta'sirdan foydalanish maqsadida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" Dasturining amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish;

✓ ijtimoiy, madaniy-rivojlantiruvchi, ekologik, etnomadaniy hamda qishloq turizmi dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

✓ umumiy va kasb-hunar ta'limi dasturlariga turistik ekskursiya tadbirlarini kiritish.

Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

✓ sifatli turistik mahsulotlarni shakllantirish, mavsumiy omillarga bo'lgan qaramlikni kamaytirish hamda mehmonxonalar yuklovini, ayniqsa yilning nomavsumiy oylarida oshirish maqsadida ichki resurslardan samarali foydalanish;

✓ hududlar o'rtasida turistlar ichki oqimini kengaytirish, ular sonini yiliga 14 milliondan 19 milliongacha oshirishga imkon beradi.

6) Quyidagilar orqali O'zbekiston Respublikasi turistik mahsulotini ichki va tashqi turizm bozorlarida ilgari surish, uning sayohat va dam olish uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi imidjini mustahkamlash:

O'zbekiston Respublikasining yagona milliy turizm brendini yaratish hamda unga asosan har bir hududning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, hududlarning turizm brendlarini yaratish;

barqaror, asosan muhim hamda yo'naltiruvchi turistik bozorlarga qaratilgan milliy turistik mahsulotni ilgari surish bo'yicha samarador strategiyasini ishlab chiqish;

milliy turizm bozorida mintaqadagi eng yirik turizm ko'rgazmalaridan birini tashkil qilish maqsadida sohadagi ko'rgazma faoliyatini jipslashtirish va qo'llab-quvvatlash;

mamlakatda va xorijda imidjni targ'ib qiluvchi reklama-axborot kampaniyasini o'tkazish;

turistik xarakterga ega xalqaro tadbirlarda turizm tashkilotlarining o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarini ilgari surish bo'yicha ishtirokini rag'batlantirish;

respublika bo'yicha bepul faoliyat ko'rsatuvchi, shu jumladan bron qilish, suvenirlar, kitoblar va turizm xaritalari bo'yicha ma'lumot beruvchi axborot shoxobchalari sonini oshirish;

yuqori turistik salohiyatga ega bo'lgan hududlarda xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha ichki ishlar organlarining maxsus bo'linmalarini tashkil qilish, ularni zamonaviy texnika va transport vositalari bilan ta'minlash.

Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatimizni rivojlangan turizm industriyasi hamda boy turistik salohiyatga ega bo'lgan, sayohat va dam olish uchun xavfsiz davlat imidjini shakllantirishga, shuningdek yangi turizm bozorlarini o'zlashtirish, xorijdan tashrif buyuruvchilar sonini yiliga 4,8 milliondan 9 milliongacha, shuningdek O'zbekistonga turistlarni jalb qilish bo'yicha xorijiy hamkorlar sonini oshirishga xizmat qiladi.

7) Quyidagilarni nazarda tutgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish:

turizm sohasida kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi kadrlari va bitiruvchilarining malakasini baholashni tashkil qilish;

turizm sohasida xalqaro talablarga javob beradigan uzluksiz, ko'p bosqichli ta'lim tizimini yaratish;

ta'limning amaliyotga yo'naltirilgan va modernizatsiyalashgan ta'lim standartlari, o'quv-uslubiy dasturlar hamda ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

ichki va kirish turizmi sohasida bevosita turistik xizmatlarni ko'rsatuvchi turizm sohasi xodimlari (gidlar, yo'riqchi-kuzatuvchi, turizm faoliyati subyektlari, umumiy ovqatlanish tashkilotlari, transport va boshqalar xodimlari) uchun majburiy malaka talablarini belgilaydigan standartlar ishlab chiqish;

turizm sohasi xodimlarini turistlarga axborot berish ishlari va xavfsizlik bo'yicha yo'riqnomalarni o'tkazish qoidalarga o'qitish bo'yicha tizimni ishlab chiqish va joriy qilish;

ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish orqali turizm sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek turizm sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini tashkil etish uchun, shu jumladan hududlarda ta'lim muassasalari sonini oshirish;

turizm sohasida kadrlar tayyorlash uchun yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallarini ochish.

Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish professional kadrlar tayyorlovi borasida integratsiyalashgan tizimni yaratish, ta'lim va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, yuqori malakali menejer, administrator, operator va portye oshpazlarga bo'lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

Konsepsiyani amalga oshirish yuzasidan tizimli nazorat olib borish, umumiy muvofiqlashtiruv, tezkor ko'rib chiqish va respublikada turizmni rivojlantirish bo'yicha muammoli masalalarni hal etish turizmni rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan amalga oshiriladi.

Konsepsiyani samarali amalga oshirish maqsadida Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Konsepsiyaning amalga oshirilishi yuzasidan monitoring olib boradi.

## 2.1-jadval

### 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y.
1.	O'zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni (ming kishi)	4 800	5 889,9	6 302,2	6 743,3	7 282,8	7 865,4	8 494,7	9 089,3
2.	Turizm xizmatlari eksporti (mln AQSh dollari)	951	1 166,9	1 271,9	1 399,1	1 553	1 739,4	1 965,5	2 232,8
3.	Ichki turistlar soni (mingta tashrif)	14 000	15 640	17 230	18 806	20 317	21 867	23 404	25 010
4.	Mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni (dona)	910	1 098	1609	2 394	2 562	2 715	2 851	2 994
5.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	22,0	24	33,7	48,7	52,1	55,2	58,0	60,9
6.	Joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (ming)	47,8	52,5	73,6	105,9	113,3	120,1	126,1	132,4
7.	Turoperatorlar soni (nafar)	957	1 053	1 158	1 262	1 325	1 458	1 531	1 676

### 2019 yil 1 fevraldan boshlab fuqarolari uchun 30 kun muddatga vizasiz rejim joriy qilinadigan mamlakatlar ro'yxati

1. Avstraliya Ittifoqi
2. Avstriya Respublikasi
3. Argentina Respublikasi
4. Bosniya va Gersegovina
5. Vatikan
6. Lyuksemburg Buyuk Gersogligi
7. Vengriya
8. Bruney-Dorussalom davlati
9. Gretsiya Respublikasi

10. Irlandiya
11. Islandiya
12. Italiya Respublikasi
13. Kanada
14. Andorra Knyazligi
15. Lixtenshteyn Knyazligi
16. Monako Knyazligi
17. Belgiya Qirolligi
18. Daniya Qirolligi
19. Ispaniya Qirolligi
20. Niderlandiya Qirolligi
21. Norvegiya Qirolligi
22. Shvetsiya Qirolligi
23. Latviya Respublikasi
24. Litva Respublikasi
25. Mo'g'uliston
26. Yangi Zelandiya
27. Portugaliya Respublikasi
28. Bolgariya Respublikasi
29. Kipr Respublikasi
30. Malta Respublikasi
31. Polsha Respublikasi
32. San-Marino Respublikasi
33. Serbiya Respublikasi
34. Sloveniya Respublikasi
35. Xorvatiya Respublikasi
36. Chili Respublikasi
37. Ruminiya
38. Slovakiya Respublikasi
39. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi

40. Braziliya Federativ Respublikasi
41. Finlyandiya Respublikasi
42. Chernogoriya
43. Chexiya Respublikasi
44. Shveysariya Konfederatsiyasi
45. Estoniya Respublikasi

**2019 yil 1 fevraldan boshlab fuqarolari elektron kirish vizasini olish imkoniyatiga ega bo'lgan mamlakatlar ro'yxati**

1. Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi
2. Antigua va Barbuda
3. Misr Arab Respublikasi
4. Barbados
5. Beliz
6. Venesuela Bolivar Respublikasi
7. Urugvay Sharqiy Respublikasi
8. Gabon Respublikasi
9. Qatar Davlati
10. Quvayt Davlati
11. Grenada
12. Shri-Lanka Demokratik Sotsialistik Respublikasi
13. Dominikana Respublikasi
14. Iordaniya Hoshimiylar Qirolligi
15. Xitoy Xalq Respublikasi
16. Koreya Xalq Demokratik Respublikasi
17. Gayana Kooperativ Respublikasi
18. Bahrayn Qirolligi
19. Butan Qirolligi
20. Kambodja Qirolligi
21. Marokash Qirolligi
22. Saudiya Arabistoni Qirolligi



23. Tailand Qirolligi
24. Tonga Qirolligi
25. Laos Xalq Demokratik Respublikasi
26. Livan Respublikasi
27. Maldiv Respublikasi
28. Meksika Qo'shma Shtatlari
29. Ko'p millatli Boliviya Davlati
30. Bangladesh Xalq Respublikasi
31. Samoa Mustaqil Davlati
32. Birlashgan Arab Amirliklari
33. Albaniya Respublikasi
34. Angola Respublikasi
35. Vanuatu Respublikasi
36. Gana Respublikasi
37. Gvatemala Respublikasi
38. Gonduras Respublikasi
39. Hindiston Respublikasi
40. Kabo-Verde Respublikasi
41. Kamerun Respublikasi
42. Kiribati Respublikasi
43. Kolumbiya Respublikasi
44. Kosta-Rika Respublikasi
45. Kot-d'Ivuar Respublikasi
46. Kuba Respublikasi
47. Mavrikiy Respublikasi
48. Makedoniya Respublikasi
49. Marshall Orollari Respublikasi
50. Nauru Respublikasi
51. Nikaragua Respublikasi
52. Palau Respublikasi

53. Panama Respublikasi
54. Paragvay Respublikasi
55. Peru Respublikasi
56. Seyshel Orollari Respublikasi
57. Senegal Respublikasi
58. Surinam Respublikasi
59. Trinidad va Tobago Respublikasi
60. Fiji Respublikasi
61. Filippin Respublikasi
62. Ekvador Respublikasi
63. El-Salvador Respublikasi
64. Sent-Vinsent va Grenadin
65. Sent-Lyusiya
66. Solomon Orollari
67. Bagama Orollari Hamdo'stligi
68. Dominikana Hamdo'stligi
69. Amerika Qo'shma Shtatlari
70. Vyetnam Sotsialistik Respublikasi
71. Ummon Sultonligi
72. Tunis Respublikasi
73. Nepal Federativ Demokratik Respublikasi
74. Mikroneziya Federativ Shtatlari
75. Sent-Kits va Nevis Federatsiyasi
76. Yamayka

**O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyuruvchi xorijiy fuqarolarning ayrim guruhlari uchun qo'shimcha (elektron bo'lmagan) kirish vizalari toifalarini joriy etish ro'yxati**

1. **“Vatandosh”** — O'zbekiston Respublikasida tug'ilgan shaxslar va ularning oila a'zolari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan va uning

hududida doimiy yashovchi qarindoshlarining taklifnomasi asosida beriladigan 2 yillik viza;

2. **“Student visa”** — O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim muassasalari, tasarrufida ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar, idoralar va tashkilotlarning iltimosnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ta‘lim muassasalariga qabul qilingan xorijiy talabalarga beriladigan bir yillik viza;

3. **“Academic visa”** — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, oliy ta‘lim muassasalari, vazirlik yoki idoralar iltimosnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatni amalga oshirishni istagan xorijiy shaxslar uchun 3 oydan 2 yilgacha bo‘lgan muddatga beriladigan viza;

4. **“Medical visa”** — tibbiy muassasaning taklifiga binoan davolanish uchun O‘zbekiston Respublikasiga kiruvchi xorijiy fuqarolar uchun 3 oygacha bo‘lgan muddatga beriladigan viza;

5. **“Pilgrim visa”** — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita va turistik faoliyat subyektlarining arizasiga ko‘ra O‘zbekistonning madaniy-tarixiy va diniy merosi, an‘analarini o‘rganish maqsadida kiruvchi xorijiy fuqarolar uchun 2 oygacha bo‘lgan muddatga beriladigan ziyorat vizasi.

**Fuqarolari ko‘chmas mulk sotib olish sharti bilan O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini olish huquqiga ega bo‘lgan mamlakatlar ro‘yxati**

1. Avstraliya Ittifoqi
2. Avstriya Respublikasi
3. Ozarbayjon Respublikasi
4. Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi
5. Antigua va Barbuda
6. Misr Arab Respublikasi
7. Argentina Respublikasi
8. Barbados
9. Beliz
10. Venesuela Bolivar Respublikasi

11. Vatikan
12. Lyuksemburg Buyuk Gersogligi
13. Vengriya
14. Urugvay Sharqiy Respublikasi
15. Bruney-Dorussalom davlati
16. Isroil Davlati
17. Grenada
18. Gretsiya Respublikasi
19. Gruziya
20. Shri-Lanka Demokratik Sotsialistik Respublikasi
21. Dominikana Respublikasi
22. Irlandiya
23. Islandiya
24. Italiya Respublikasi
25. Kanada
26. Qirg'iziston Respublikasi
27. Xitoy Xalq Respublikasi
28. Andorra Knyazligi
29. Lixtenshteyn Knyazligi
30. Monako Knyazligi
31. Gayana Kooperativ Respublikasi
32. Belgiya Qirolligi
33. Butan Qirolligi
34. Daniya Qirolligi
35. Ispaniya Qirolligi
36. Marokash Qirolligi
37. Niderlandiya Qirolligi
38. Norvegiya Qirolligi
39. Tailand Qirolligi
40. Shvetsiya Qirolligi
41. Latviya Respublikasi
42. Livan Respublikasi
43. Litva Respublikasi
44. Malayziya
45. Maldiv Respublikasi
46. Meksika Qo'shma Shtatlari
47. Mo'g'uliston
48. Yangi Zelandiya
49. Birlashgan Arab Amirliklari
50. Portugaliya Respublikasi
51. Albaniya Respublikasi
52. Bolgariya Respublikasi
53. Bosniya va Gersegovina Respublikasi
54. Belarus Respublikasi

55. Gvatemala Respublikasi
56. Gonduras Respublikasi
57. Hindiston Respublikasi
58. Indoneziya Respublikasi
59. Qozog'iston Respublikasi
60. Kipr Respublikasi
61. Kolumbiya Respublikasi
62. Koreya Respublikasi
63. Kosta-Rika Respublikasi
64. Mavrikiy Respublikasi
65. Makedoniya Respublikasi
66. Malta Respublikasi
67. Moldova Respublikasi
68. Nauru Respublikasi
69. Palau Respublikasi
70. Panama Respublikasi
71. Peru Respublikasi
72. Polsha Respublikasi
73. San-Marino Respublikasi
74. Seyshel Orollari Respublikasi
75. Serbiya Respublikasi
76. Singapur Respublikasi
77. Sloveniya Respublikasi
78. Surinam Respublikasi
79. Trinidad va Tobago Respublikasi
80. Tojikiston Respublikasi
81. Fiji Respublikasi
82. Filippin Respublikasi
83. Xorvatiya Respublikasi
84. Chili Respublikasi
85. Ekvador Respublikasi
86. Rossiya Federatsiyasi
87. Ruminiya
88. Sent-Vinsent va Grenadin
89. Sent-Lyusiya
90. Slovakiya Respublikasi
91. Bagama Orollari Hamdo'stligi
92. Dominikana Hamdo'stligi
93. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi
94. Amerika Qo'shma Shtatlari
95. Vyetnam Sotsialistik Respublikasi
96. Tunis Respublikasi
97. Turkiya Respublikasi
98. Ukraina

- 99. Braziliya Federativ Respublikasi
- 100. Germaniya Federativ Respublikasi
- 101. Sent-Kits va Nevis Federatsiyasi
- 102. Finlyandiya Respublikasi
- 103. Fransiya Respublikasi
- 104. Chernogoriya
- 105. Chexiya Respublikasi
- 106. Shveysariya Konfederatsiyasi
- 107. Estoniya Respublikasi
- 108. Yamayka
- 109. Yaponiya

### **2.3. “Kasaba Samarqand” UK sayyohlik agentligining ko’rsatgichlari va faoliyati tahlili**

“Kasaba Samarqand” UK sayyohlik agentligining faoliyati tahlili amalga oshirda quyidagilarni qarab chiqdik:

1. “Kasaba Samarqand” unitar korxonasi Samarqand viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi kengashining 2013 yil 11 fevraldagi 14-05 “0”-sonli rayosat qarori bilan tashkil etilgan.

2. “Kasaba Samarqand” unitar korxonasi Samarqand shahar hokimligi huzuridagi tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish inspeksiyasi tomonidan 2013 yilning 13 fevral kuni 9697-tartib raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

3. Kasaba Samarqand” unitar korxonasi Samarqand shahar, M.Ulugbek kuchasi 42-uyda joylashgan.

4. “Kasaba Samarqand” unitar korxonasiga Samarqand viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi kengashining 2017 yil 20 dekabrda 9-56 “s”-sonli rayosat qarori bilan Hazratqulov Abbos YOqubjon o‘g‘li direktor etib tayinlangan.

5. “Kasaba Samarqand” unitar korxonasi turizm faoliyati bilan sho‘g‘illanadi. O‘z oldiga O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish, sayohlar oqimini ko‘paytirish, ichki turizmni tizimli yo‘lga qo‘yish, yurtimiz aholisini boy madaniy

tariximiz va obidalarimiz bilan yaqindan tanishtirish, yoshlarni ish bilan ta'minlash vazifalarini qo'ygan.

6. "Kasaba Samarqand" unitar korxonasi 2018 yil 12 fevral kuni turizm xizmatlarini ko'rsatish uchun O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan № T-0141-sonli litsenziya berilgan.

7. "Kasaba Samarqand" unitar korxonasi "Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi" DUK.ning 2018 yil 22 yanvardagi 24-sonli qarori bilan turizm xizmatlarini ko'rsatish uchun muvofiqlik sertifikati berilgan.

8. "Kasaba Samarqand" unitar korxonasi bugungi kunda 3 nafar xodim faoliyat ko'rsatadi.

9. "Kasaba Samarqand" unitar korxonasi bugungi kunda yurtimizdagi eng ko'p sayyohlar tashrif buyuradigan shaharlarda joylashgan mehmonxonalar, transport firmalari, oshxonalar, muzeylar, temir yo'l va aviakassalar bilan shartnomalar imzolagan va hamkorlikda ishlamoqda.

#### ***"Kasaba Samarqand" UK sayyohlik agentligining marketing tadqiqotlari***

Marketing tadqiqotlarni o'z kuchi bilan yuritish faqat maxsus bo'limga ega bo'lgan yirik firmalar eplashi mumkin. Kichik firmalar maxsus tashkilotga murojat qilishi yoki ularni o'tkazish uchun boshqa korxonalar bilan birlashishi mumkin. Xorijiy firmalarning asosiy qismi marketing tadqiqotlarni tashkil etishda aralash shakldan foydalanishni afzal ko'radi. Odatda, chetdagi tashkilotlarga iste'molchilarni ommaviy so'rov qilish topshiriladi. Amaliyotda barcha obro'yli xorijiy firmalar bozorni o'rganish institutlari va (yoki) konsalting tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Marketing tadqiqotni tashkil etish shaklini tanlash qo'yidagi omillarga asoslanadi:

- firmaning bozordagi ish tajribasi;
- tadqiqotchi xodimlarning borligi;
- xodimlarning kasbiy salohiyati;
- firmaning bozordagi holati va uning maqsadlari;
- firma bozor faoliyatining strategiyasi va taktikasiga.

Marketing tadqiqotlar samaradorligini aniqlaydigan muhim omil bo'lib, bozorni majmualari o'rganish hisoblanadi.

Turistik korxonalar marketingi muhiti mavzusiga oldin qisman e'tibor berilgan. Endi bu mavzuda bizlar turistik bozorda mavjud bo'ladigan vaziyatlar va tashqi hamda ichki muhitning tahlilini o'tkazishga harakat qilamiz.

Turistik korxonalar faoliyati sharoitlari butunligidan kelib chiqqan holda, uning oldida bozor imkoniyatlari, ya'ni faoliyatning imkoniy yo'nalishlari ochiladi.

Bozor imkoniyatlarini aniqlashda marketing muhitining tahlili ko'maklashadi. U ikki asosiy yo'nalishda amal qilishi mumkin.

1. Tashqi muhit holatini va rivojlanish yo'nalishlarni o'rganish.
2. Turistik korxonalar ichki salohiyati (ichki muhit)ning tahlili va baholanishi.

Firmaning tashqi muhiti o'zgarishsiz holda yuzaga chiqadi. Firma tashqi muhitga ta'sir qila olmaydi va samarali faoliyati uchun unga (tashqi muhitga) yondoshishi, doimo uning o'zgarishlarga e'tibor berishi, oldindan o'rganishi va o'z vaqtida javob berishga majbur.

Shuni aytib o'tish kerakki, servis va turizm sohasining korxonalar korxonaning bevosita tashqi muhit bilan aloqa qilish tafsiloti va mazmuniga sezilarli ta'sir o'tkazishlari mumkin. U qo'shimcha imkoniyatlarni shakllanishida va uning kelgusidagi hayotda tahdidlarni bartaraf qilishda faol qatnashishi mumkin. Tashqi tahlilning asosiy vazifasi bugungi kunda yoki kelajakda firma uchun vujudga keladigan imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash.

Korxonalar imkoniyatlari – sotish hajmi va foydani o'sishiga olib keluvchi tashqi muhitning ijobiy omillari (yo'nalishlari va hodisalari).

Tahdidlar bo'lib tashqi muhitning salbiy omillari (yo'nalishlar va hodisalar) hisoblanadi, chunki ular, korxonaning mos keladigan reaksiyasi yo'qligidan foydalanib, sotish hajmi va foydani ahamiyatli darajada pasayishiga olib kelishi mumkin. Muvaffaqiyatli marketing faoliyati uchun firma kelajakda ro'y beradigan qiyinchiliklarni hamda paydo bo'ladigan yangi imkoniyatlarni oldindan bilishi zarur.



Tahdidlarga bardosh berish va imkoniyatlardan to'liq darajada foydalanish uchun, ular to'g'risida faqat bilimga ega bo'lish yetarli bo'lmaydi. Tahdiddan xabardor bo'lib, unga qarshilik ko'rsatilmaslik mag'lubiyatga olib keladi. Shu bilan birga, yangi imkoniyatlardan xabardor bo'lib, ularni amalga oshirish uchun salohiyatga ega bo'lmaslik, ulardan foydalanish imkoniyatini yo'qotish demakdir.

Buning uchun ham marketing tadqiqot muhitning marketing tadqiqotlari jarayonidagi tahdid va imkoniyatlari asosida turistik korxonalarining ichki muhiti o'rganiladi.

Firmaning ichki muhiti o'z mazmuni bo'yicha tashqi muhitning intiqosi. Turistik korxonaning ichki muhiti – korxonaga aniq imij beradigan, uning ichidagi sub'ekt, ob'ektlar va jarayonlarning butunligi, mohiyati bilan bu tashkilotning xo'jalik mexanizmi, uning tarkibi.

U firmaga vaqtning ma'lum davrida faoliyat yuritish imkoniyatni beradigan salohiyatdan iborat.

Turkorxonaning salohiyati – bozordagi raqobat afzalliklarni ta'minlaydigan uning imkoniyatlari va yetuklarning birdamligi.

Ichki muhit tahlil ob'ektlari quydagilar bo'ladi:

- kadrlar (ularning salohiyati, malakasi; tanlash, o'qitish va lavozimdan ko'tarish; mehnat natijalarni baholash va rag'batlantirish; xodimlar o'rtasida munosabatlarni saqlash va mustahkamlash va h.k.).

- boshqarishni tashkillashtirish (kommunikatsiya jarayonlari; tashkiliy tuzilmalar; me'yorlar, qoidalar, mulojalar; huquq va majburiyatlarni taqsimlash; buysunish bosqiligi);

- moliya (likvidlikni, foydalilikni ta'minlash, sarmoya imkoniyatlarni yaratish);

- marketing (turistik mahsulot strategiyasi; baho strategiyasi; savdo strategiyasi; kommunikatsion strategiyasi);

Firma o'z (ichki) salohiyatini tahlili uning kuchli va kuchsiz tomonlarni aniqlash, ularning tashqi muhiti omillari bilan bog'liqligini baholash imkoniyatini yaratadi.

Kuchli tomonlari bu firmani raqiblardan ustun qiladigan obruyi va afzalliklari. Salbiy tomonlari bu korxonaning to'g'rilashga muhtoj bo'lgan kamchiliklari, aks holda, raqiblar ulardan o'z afzalliklari sifatida foydalanishi mumkin.

Amaliyotda korxonaning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash uchun bir nechta yondashuv ishlatilishi mumkin:

- ichki yondashuv – tahlil asosida korxonaning tajribasini va xodimlarning fikrini aniqlash;
- tashqi yondashuv – raqiblar bilan taqqoslash asosida;
- me'yoriy – ekspert va maslahatchilar fikrlari asosida aniqlash.

Imkoniyatlar va tahdidlar kuchli va kuchsiz tomonlarning imkoniyat ro'yxati tuzilgandan so'ng, ularning o'rtasida bo'lgan aloqani aniqlash zarur bo'ladi.

Marketing muhiti tadqiqotining asosiy maqsadi turistik korxonaning marketing imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Marketing imkoniyatlarini aniqlash uchun SWOT – tahlil (ingliz so'zlardan tashkil topgan qisqartiruv: strength, weaknesses, opportunities, threats, ya'ni – kuch imkoniyat, sustlik, tahdid) nomini olgan ya'ni tashkilotning kuchli va sust tomonlari, imkoniyat va tahdidlarning tahlili demakdir.

Usul matritsadan foydalanishni nazarda tutadi. U qo'yidagicha izohlanadi. U «KIM» maydoni tashqi muhitda vujudga kelgan imkoniyatlardan foyda ko'rish uchun korxonaning kuchli tomonlaridan foydalanish imkoniyatini beruvchi ijobiy marketing imkoniyatlarini ochib beradi.

«SLI» maydoni vujudga kelgan imkoniyatlar hisobidan korxonaning sust tomonlarni bartaraf etishga ko'maklashadi. Tahdidlarni yo'q qilishda korxonaning quvvatidan foydalanish imkoniyatini «KTA» maydoni tahmin va nihoyatda, korxonaning holati uchun «SAT» maydoni jozibasiz va qo'rqinchli bo'ladi, chunki tahdidlar ta'siri ostida korxonaning o'z o'rnini yo'qotishi mumkin.

Matritsadan foydalanganda imkoniyatlar va tahdidlarning boshqa tomonga o'tishini ham hisobga olish kerak. Shunday, ishga solinmagan imkoniyat, agarda uni raqib ishlatsa, tahdidga aylanishi mumkin. Aksincha, bartaraf etilgan tahdid firmaga qo'shimcha kuchli tomonga aylanishi mumkin.

Shunday qilib, tahdid va imkoniyatlarni tahlili korxonaning ichki resurslar va imkoniyatlarni baholashga ko'maklashadi, tashqi muhit o'zgarishi yo'nalishlarini va korxonaning bu o'zgarishlarga moslashuv darajasini aniqlab beradi.

Turistik firmalar ikki xil tadqiqot o'tkazishi mumkin:

1) Turistik bozorda ro'y beradigan barcha o'zgarishlarni va rivojlanish yo'nalishlarni aniqlash maqsadida doimo o'tkaziladigan joriy tadqiqot;

2) Turistik bozordagi o'zgarishlar tahlilini tekshirish yoki tahlil qilish maqsadida bitta aniq vaziyatni o'rganish.

Turizmdagi tadqiqotlar har xil shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: - oddiylardan boshlab murakkablarigacha, dalillarni to'plashdan boshlab majmualari matematik modellarni qo'llashgacha;

Tadqiqot tarkibining har aniq vaziyatda o'ziga xos bo'lishiga qaramasdan, uning beshta majburiy bosqichlari to'g'risida aytib o'tish kerak.

Oldindan o'rganish bu kelajak to'g'risida axborot olish.

Konyukturani oldindan o'rganish – omillar uchta guruhini tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi:

- obektiv guruh (aholi daromadlari, demografik vaziyat, siyosiy vaziyat va boshq.);
- subektiv (psixologik xususiyatlari, milliy urf-odatlar va boshq.);
- maxsus (turmahsulot assortimenti va narxi, sayohat ob'ektining jozibaligi va arzon – qimmatligi, korxonalar obruyi va h.k.).

Konyukturani prognozi odatda qisqa muddatli bo'ladi, chunki faqat ma'lum chegaralarda bozor holati harakatini ifodalash mumkin.

. Masalan, kurortga ketayotgan turist mehmonxonadan joy olish bilan birga, transport biletini ham bir turistik firmadan sotib oladi. Transport tashkiloti bilan hamkorlik qilishga rozilik bergan turfirmalar raqobatchilardan oson kutiladi. Xuddi shu yo'l bilan firma charter reys tashkil qiladigan avialiniyalar bilan ham aloqa o'rnatadilar. Sayohatchilik industriyasi iste'molchilarning oshib borayotgan talabini tez tushunib, bu sohada muammolarni yecha oladigan marketing

bo'yicha mutaxassislarga muhtoj. Oshib borayotgan raqobatchilik sharoitida kompaniyalar o'z e'tiborini iste'molchilarning talabini qondirishga qaratishga majburdirlar. Bunga rioya qilmagan kompaniyalarning kelajagi yo'q. Har qanday biznesning maqsadi – xaridorni jalb qilish va ushlab qolish, tashkilotning daromadini o'sishiga olib keluvchi iste'molchini talabini qondirish, turizm va mehmondo'stlikda marketingning eng oliy maqsadidir.

Oxirgi yillarda iqtisodiy o'zgarishlar va yangi texnikalarning rivojlanishi, korxonalarining xizmat va mahsulotlarini marketing shakllarida va korxonalar boshqaruvlarida ahamiyatli bir o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Kompyuter texnologiyalaridagi rivojlanishlar ba'zi turistik masofalarning oldingi rejaga chiqishi, iste'molchi munosabatlaridagi o'zgarishlar va boshqa omillar korxonalar xo'jayinlariga xaridorlarning kutish vaqtlarining o'tganini, endi o'zlari borib xaridorlarni izlash va ularni o'zlariga jalb qilish kerakligini tushinib boshladilar. Bu jarayon bir restoran yoki mehmonxona kabi sayohat byurosi uchun ham taalluqlidir.

### ***“Kasaba Samarqand” UK sayyohlik agentligining innovatsion boshqaruvdan foydalanish darajasi***

Samarqand viloyati xududida mahalliy turizmni rivojlantirish maqsadida viloyatdagi tumanlar (shahar) xalq ta'limi bo'limlari, viloyat o'rta maxsus kasb – hunar ta'limi boshqarmasi bilan qo'shma qarorlar imzolandi. Samarqand shahri bo'yicha doimiy tarzda firma ishchilari tomonida targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Buning natijasida firmada yangi mahalliy yo'nalishlar bo'yicha ekskursiyalar o'tkazilmoqda.

#### ***“Kasaba Samarqand” UK sayyohlik agentligining raqobatdagi ustunligi:***

- gurux yoki alohida shaxslar uchun transportli xizmat kursatish;
- O'zbekistonning barcha viloyatlari bo'yicha ekskursion xizmat ko'rsatishlardan iboratdir.

“Kasaba Samarqand” UK sayyohlik agentligida turistik xizmat ko'rsatish turli xildagi ehtiyojlarni qondirish maqsadida yo'naltirilgan: sayohat, ovqatlanish, yashash, bilish ekskursiyalar, kungil ochar tadbirlar va boshqalar. Turistik firma

o'zining xizmat ko'rsatishining sifatini oshirish maqsadida xizmat ko'rsatuvchi mijozlari orasida, salohiyatlilar o'rtasida surovnomma o'tkazib turadi.

“Kasaba Samarqand” UK sayyohlik agentligi taklif kilinayotgan mahsulotning sifatini oshirish;

- mijozlar sonini kupaytirish;
- sotish metodikasini takomillashtirish;
- sotuv xajmini oshirish;
- firma xodimlarining kasbiy darajalarini oshirish hisobida mijozlarga xizmat kursatishni rivojlantirish;

- barcha savollar yuzasidan malakali maslaxatlar berishdan iborat.

***“Kasaba Samarqand” UK sayyohlik agentligining salbiy tomonlari:***

- chet el turistlarini kabul kilishda tajribaning yetishmasligi;
- mahsulotning harakatlanishiga yetrali e'tibor berilmasligi;
- tur kataloglari buyicha mikdorining chegaralanganligi.

Xorijiy tajribalariga tayangan holda mahalliy turizmga servisni rivojlantirishda . “Kasaba Samarqand” UK sayyohlik agentligi quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirishini tavsiya qilamiz:

- turistik mahsulotning mahalliy turistik va tashkilotlarning salohiyatli iste'molchilariga ijobiy tomonlarini yaratish (reklama, "turistik jurnal" nomli teleko'rsatuv, maxsus jurnallar, gazetalar, pablisitilar);

- “Kasaba samarqand” UK sayyohlik agentligining personalga xizmat ko'rsatishda turistik e'tibor berish belgilarini yaratish ("hammasi mijoz uchun", "mijoz doimo xaq", barcha xohish istaklari imkoniyat boricha qondirilishi lozim.);

- mijozlarning o'zlarini ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda turistik mahsulotlarga bo'lgan iltimoslariga binoan barcha xodimlarning diqqat bilan e'tibor berishi; (Biz yana siz uchun nima qila olamiz?");

- Turistlarning xizmatlardan oson foydalanishga, ob'ektlar bo'yicha axborotlarni olishga yo'naltirishni osonlashtirish (turistlar ko'p boradigan joylar bo'yicha axborotlarni va reklamali stendlarni o'rnatish).
- Turistga xayrxoxlik bilan munosabatda bo'lish.

### **3-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

#### **3.1. O'zbekiston Respublikasi turizmini rivojlantirishda erkin turistik zonalarning ahamiyati**

Bugungi kunda butun dunyoda erkin iqtisodiy zonalarning ko'payib borayotgani va bu huududlarning mamlakatlar iqtisodiyotidagi ahamiyati tobora kuchayib borayotganini ko'rishimiz mumkin. So'ngi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan islohatlar va bu islohotlarning bir bo'lagi bo'lib hisoblangan erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilayotganini ko'rishimiz mumkin. Iqtisodiy zonalarning bir shakli hisoblangan erkin turistik zonalar ham tashkil etish maqsadga muvofiqligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Chunki bugungi kunda turizm soxasi dunyo iqtisodiyotida yetakchi tarmoqlardan biriga aylanib ulgurdi. Bundan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkunki erkin turistik zonalar tashkil nafaqat turizm rivojidadagi ahamiyati balki mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati ham juda muhim hisoblanadi.

Erkin turistik zona (ETZ) ishtirokchisiga aylanish va u yerda o'z loyihasini amalga oshirish uchun 11 ta majburiy mezonga javob berish kerak. Shu o'rinda talablarning bir qismi ijtimoiy tomonga yo'naltirilganligini aytib o'tish lozim. Masalan, yangi ish o'rinlari tashkil qilish zarur. Bunda ularning soni ma'muriy kengash tomonidan belgilanadi, 10%i – Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi ro'yxatlari bo'yicha ehtiyojmandlar uchun kvota. Tashkil etiladigan tashkilot xodimlari shtatining kamida 95%i O'zbekiston fuqarolari bo'lishi kerak, ularga stajirovka o'tash hamda malaka oshirish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek loyiha tashabbuskori o'z biznes-loyihasi mazmuniga e'tibor qaratishi zarur. Direktsiyaga faqat qayd etilgan talablarga javob beradiganini taqdim etishi lozim. ETZda loyihani joylashtirish masalasini hal etish paytida, yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, quyidagilar ahamiyatga ega:

- investitsiyalarni muassislarning o'z mablag'lari va ular tomonidan O'zbekistonning davlat kafolati taqdim etilmasdan jalb qilingan kreditlar hisobidan amalga oshirish;

- investorning moliyaviy layoqatliligi, texnik va texnologik bazaning mavjudligi;

- investitsiya loyihasi amalga oshirilishining maqsadga muvofiqligi (investitsiya loyihasini qulay joylashtirish, tashkil etiladigan ish o'rinlari soni, hudud va umuman, sohadagi infratuzilma o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatish, ishlab turgan quvvatlardan foydalanish, zarur infratuzilmaning mavjudligi);

- investitsiya loyihasida xalqaro standartlarga mos bo'lgan menejment tizimining mavjudligi;

- asbob-uskunalar va texnologik liniyalar ro'yxati ko'rsatilgan holda, energiya tejaydigan zamonaviy tizimlar va texnologiyalar mavjudligi haqidagi ma'lumotlar.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nazarda tutilgan, jahondagi yetakchi mehmonxona tarmoqlari va umumiy ovqatlanish tarmoqlari brendlarining mezonlariga mos bo'lgan, shuningdek xodim sifatida yurtdoshlarimizni jalb etishni ko'zda tutadigan loyihalarga ustunlik beriladi.

ETZ ishtirokchilari bo'lgan tadbirkorlik sub'yektlari erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari uchun nazarda tutilgan barcha imtiyoz va preferensiyalardan foydalanadilar.

Shu boiz bizning mamlakatimizda ham bugugi kunda erkin turistik zonalar tashkil etlimoqda. Hususan Toshkent viloyati ulkan turistik salohiyatga egali hududda ekstremal va tog' turizmini, ya'ni chanalarda uchish, snoubording, paraplanda va deltaplanda uchish, velosport, motosport va ekstremal sport turlari, hamda ekologik va qishloq xo'jalik turizmi rivojlantirishga tabiiy sharoitlar bor. Xususan, Toshkent viloyati tog'larida Chorvoq suv ombori mavjud bo'lib, uning sohilida ko'plab pansionatlar, dam olish zonolari va bolalar sport sog'lomlashtirish lagerlari joylashgan. Muhtasham g'arbiy Tyan-Shan tog'lari ko'plab turistik yo'llar va yo'laklar, sharsharalar, g'orlar, chuqurliklar, yong'oqzorlar va bog'lar 2016 yili YUNESKOning Butunjahon ro'yxatiga kiritilgan. Bundan tashqari, "Ugom-



Chotqol” milliy bog‘i 230 turdagi hayvonlar, 1800 o‘simlik turlari va 4 ta tabiiy ko‘llarni (Urungach, Bodak, Shovuri, Ixnoj) o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda viloyatda mahalliy va xorijiy turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi jami 120 ta korxonada faoliyat ko‘rsatmoqda: ulardan 15 tasi turistik operatorlar, kuniga 2440 ta turistga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan 45 mehmonxona, 71 sanatoriy va dam olish maskanlari. Turizm xizmatlari eksportning jami 44,6 million AQSH dollarini tashkil etadi, bu esa o‘shning 109,2 foizini tashkil etadi.

Shunga qaramay, mintaqaning yirik turistik salohiyati va tabiiy resurslari hisobga olinsa, bu ko‘rsatkichni qoniqarli deb bo‘lmaydi, ya’ni turar joylar, sanatoriylar va dam olish maskanlarini joylashtirish uchun yetarlicha mablag‘lar mavjud emas, turistik infratuzilmalar rivojlanish va turistlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati past, shuningdek, ularning turlari soni cheklangan.

Shu bilan birga, Toshkent viloyatidagi turizm sohasi bugungi holatining tahlili turistlarning arzon va sifatli dam olish ehtiyojlarini to‘laroq qondirish uchun mazkur sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha samarali choralarini qabul qilish lozimligini ko‘rsatmoqda.

Shu munosabat bilan Toshkent viloyatining turistik salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish va rivojlantirish, transport-kommunal infratuzilma obyektlari kompleksini va yangi turistik yo‘nalishlarni shakllantirilgan holda Chimyon-Chorvoq rekreatsiya hududida zamonaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirish yo‘li bilan dam olish va turizm uchun sharoitlarni yaxshilash, shuningdek, turistik xizmatlar sifatini oshirish, uning asosida yangi ish o‘rinlari yaratish va aholining daromadlari o‘shini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvoq” erkin turistik zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvoq” erkin turistik zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmonining qabul qilinishi turizm sohasidagi davlat siyosatining mantiqiy davomi hisoblanadi va Toshkent viloyatining turistik salohiyatidan foydalanish samaradorligini rivojlantirish va oshirishga qaratilgan.

Toshkent viloyatining o'ziga xos kurort-rekreatsiya sharoitlarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan zamonaviy mehmonxona majmualarini, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo-ko'ngilochar va turistik ahamiyatdagi boshqa obyektlarni qurib, shuningdek, zamonaviy muhandislik infratuzilmasini yaratgan holda Chimyon-Chorvoq rekreatsiya hududida "Chorvoq" erkin turistik zonasini tashkil etish nazarda tutilmoqda.

O'zbekistonning potensial foydali turizm sanoati hozirgi vaqtda mehmonxonalar qurilishi va deyarli barcha zamonaviy infrastruktura uchun investitsiyalarning yetishmovchiligi, shuningdek, turistlarni jalb qilish va chet elda dam olishni afzal ko'radigan fuqarolarni ichki turistik bozorga qayta yo'naltirish uchun zarur bo'lgan xizmat ko'rsatish darajasining pastligi bilan bog'liq muammolarga duch kelayotganligi sababli erkin turistik zonani yaratish davlat ahamiyatidagi masalaga ko'tarildi.

Tashkil etilayotgan "Chorvoq" erkin turistik zonasi O'zbekistondagi shu kabi zonalar ichida birinchi va yagonaligi bois, erkin turistik zonalar mamlakatimiz uchun innovatsiya xarakteriga ega hisoblanadi.

Farmon bilan "Chorvoq" erkin turistik zonasining asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilanmoqda:

Erkin turistik zonada zamonaviy turizm infrastrukturasi obyektlari (mehmonxona majmualari, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo-ko'ngilochar va turistik ahamiyatdagi boshqa obyektlar)ni, turistlarga xizmat ko'rsatish uchun zarur sharoitlarni ta'minlagan holda maxsus funksional va mavsumiy rekreatsion dam olish zonalarini yaratish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy va mamlakatimiz investorlarining investitsiyalarini jalb qilish;

Hududning ekomuhiti imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'ziga xos turistik yo'nalishlarni tashkil etish;

Transport vositalarining arzonligini ta'minlash, hududda transport harakatining yangi (poyezd, elektropoyezd, avtobus), shu jumladan muqobil energiya manbalarida harakatlanuvchi turlarini joriy etish, yo'lovchi transporti harakatining yo'nalishlarini kengaytirish, ularning to'xtovsiz harakatini tashkil

etish, tegishli transport infrastrukturasi rivojlantirish ;

Turistlar xavfsizligi qo‘shimcha sharoitlarini, shu jumladan, turistik infratuzilma obyektlarini videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash, ogohlantirish tizimlarini tashkil etish, zona hududiga keluvchi turistlar haqida yagona ma’lumotlar bazasini, favqulodda holatlarda tez yordam berish tizimini joriy etish yo‘li bilan yaratish;

Erkin turistik zonada loyihalarni amalga oshirayotgan va faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari va investorlar (shu jumladan, xorijiy investorlar) uchun belgilangan alohida bojxona va soliq rejimlarini ta’minlash;

Muqobil va qayta tiklanadigan manbalarni qo‘llagan holda yangi zamonaviy energiya tejavchi tizimlar va texnologiyalarni sinov tariqasida joriy qilish asosida o‘ziga xos ekologik tizimni yaratish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish; Turizm infratuzilmasi obyektlarini, dam olishni va turistik xizmatlarni rivojlantirish uchun tashkil etiladigan erkin turistik zonalar erkin iqtisodiy zonalarining bir turi ekanligini hisobga olib:

“Chorvoq” erkin turistik zonasining faoliyat ko‘rsatish muddati keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan 30 yil etib belgilandi;

Erkin turistik zonaga va zona ishtirokchilari sifatida ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlik subyektlariga erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risidagi qonunchilik qoidalari, jumladan erkin iqtisodiy zonalar va ularning ishtirokchilari uchun nazarda tutilgan barcha imtiyoz va afzalliklar tatbiq etildi. Erkin turistik zonaning yaratilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 25 oktyabrdagi PQ–3356-son “Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan tashkil etilgan Toshkent viloyatida erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining ma’muriy kengashi tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining vakili va Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi Turizmni rivojlantirish departamentining direktori kiritildi .

Farmonda vakolatli vazirlik va idoralarga erkin turistik zonani rivojlantirish

bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan bir qator topshiriqlar nazarda tutilgan:

erkin turistik zona hududida xavfsiz turizmni ta'minlash konsepsiyasini, shu jumladan, intellektual transport, geoaxborot tizimi va boshqalarni joriy etish bo'yicha takliflarni kiritish;

erkin turistik zonani tibbiyot muassasalari bilan ta'minlashga, sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'ini muassasalari, ularning zamonaviy jihozlar va yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlanganligiga asosiy e'tibor qaratgan holda turistlarga sifatli tibbiy xizmat, shu jumladan, shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish;

Toshkent – Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasi marshruti (va ortga) bo'yicha kombinatsiyalashgan yo'lovchi tashuv tizimini yanada rivojlantirish, zarurat bo'lganda yangi qulay yo'nalishlarni joriy etish bo'yicha takliflarni kiritish;

erkin turistik zona hududidan maishiy chiqindilarni tizimli asosda ularni qayta ishlaydigan yaqin korxonalariga olib chiqib ketish bo'yicha chora-tadbirlarni qabul qilish;

“Chorvoq” erkin turistik zonasini yanada rivojlantirish Konsepsiyasi loyihasini, shuningdek, uni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini kiritish.

Farmonning eng muhim jihatlaridan yana biri uning erkin iqtisodiy zona hududida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilganligi hisoblanadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga kredit va foizlarni uzishning qulay shartlarini taqdim etishni o'z ichiga oluvchi 100 million AQSH dollari miqdoridagi imtiyozli kredit liniyalari ochishni ta'minlash topshirilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankiga, “O'zsanoatqurilishbank” ATB va “Asaka” ATBga :

Erkin iqtisodiy zona hududida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarida

banklarning, shu jumladan banklarning tegishli investitsiya kompaniyalari orqali 100 foizgacha ishtirok etish;

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi bilan birgalikda xalqaro moliya institutlari, xorijiy banklar va boshqa investorlarning – yuridik va jismoniy shaxslarning (shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning), davlat va nodavlat fondlarning, korxonalar va tashkilotlarning grantlari, kredit liniyalari va investitsiyalari, beg‘araz moliyaviy yordamlarini, shuningdek, amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun tijorat banklarining kreditlarini jalb etish huquqi berilmoqda .

Farmonning qabul qilinishi zamonaviy infratuzilmani izchil rivojlantirish, taqdim etiladigan turistik, mehmonxona va transport xizmatlari sifatini hamda Chimyon-Chorvoq rekreatsiya hududiga tashrif buyurayotgan xorijiy va mahalliy turistlar uchun xizmatlar darajasini yaxshilash maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha masalalarni hal etishni tezlashtirishga imkon beradi.

***Erkin turistik zona tashkil etishda yana muhim loyihalardan biri Urganch va Xivada kichik turizm zonalari tashkil etish rejalashtirilgan.***

Urganchda Shovot kanali bo‘yida “Shovot” kichik turizm zonasi (bundan keyin — KTZ), Xivada esa “G‘ovuk ko‘l” KTZ tashkil etiladi.

Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-2020 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar tasdiqlandi. Bu haqda Qarorga muvofiq, Urganchda Shovot kanali bo‘yida “Shovot” kichik turizm zonasi (bundan keyin — KTZ), Xivada esa “G‘ovuk ko‘l” KTZ tashkil etiladi. U yerda zamonaviy mehmonxona komplekslari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va turizm ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa ob’ektlar quriladi. 2 oy muddatda KTZning aniq chegaralari belgilanadi.

Xorazm viloyati EIZ va KSZ ma’muriy kengashi turizm zonalarida investorlar uchun yer ajratilishini ta’minlaydi.

Viloyat hokimligi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan birgalikda oy muddatda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan qo‘shimcha investitsiya loyihalarining manzilli ro‘yxatini shakllantirib, tasdiqlash uchun kiritadi .

Hujjatga ilovada 2019-2020 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksi taqdim etilgan. Ular jumlasida:

- “Ichan-qal'a” majmuasi hududida yashayotgan tub aholini Xiva atrofida barpo etiladigan yangi ko‘p qavatli uylarga bosqichma-bosqich ko‘chirish. Ushbu chora tarixiy majmuaning umumbashariy bemisl ahamiyatini, “tirik muzey-shahar” maqomini saqlab qolish, aholining turmush tarzini yaxshilash, oilalarning o‘ziga xos hunarmandchilik va qadimiy kasb turlari bilan shug‘ullanishi uchun sharoit yaratish imkonini beradi;

- Urganchda mahalliy (Samarqand, Buxoro, Farg‘ona va Namangandan) hamda Frankfurt, Istanbul, Anqara, Izmir, Volgograd, Dehli, Futszyandan xalqaro aviareyslarni yo‘lga qo‘yish;

- Xiva temir yo‘l vokzalidan “Ichan-qal'a” majmuasigacha bo‘lgan ko‘chadagi barpo etilayotgan obyektlarda hududning tarixiy-madaniy muhitiga uyg‘un holda har xil ko‘ngilochar maskanlar va savdo shoxobchalarini joylashtirish ko‘zdatutilgan.

### **3.2. Klasterli yondashuv asosida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari**

Hududiy turizm bozorini rivojlantirishning konseptual jihatlari mazkur bozorning rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalarini tadqiq etish natijasida belgilangan masalalarning innovatsion yechimlarini aniqlash va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarni ishlab chiqishdan iborat hisoblanadi.

Hududiy turizm bozorini rivojlantirish konsepsiya mamlakatimizda raqobatbardosh turistik majmualarni shakllantirish orqali, bir tomondan, hududiy turistik mahsulotlar ichki va tashqi iste‘molchilarining tobora o‘sib va o‘zgarib

boruvchi talablarini qondirish, ikkinchi tomondan esa, yangi isho'rinlarining yaratilishi, aholiturmush darajasining o'sishi, hudud iqtisodiyotiga investitsion oqim hajmining oshishi hamda davlat byudjeti daromad qismining oshishi orqali turizm sohasini hududiy iqtisodiyotning rivojiga ahamiyatli hissasini ta'minlashga yo'naltirilgandir. Mamlakatimizda hududiy turistik klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish asosida hududiy turizm bozorini rivojlantirishning tavsiya etilayotgan konsepsiyasi o'zaro bog'liqlikdagi ikki xil, ya'ni tashkiliy-institutsional va ijtimoiy-iqtisodiy mazmundagi, tizimli tarzda amalga oshiriladigan tadbirlar majuidan iborat.

Hududiy turistik klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun hududiy turizm sohasining amaldagi tashkiliy-institutsional tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishdagi tadbirlarni amalga oshirish, maqsadga muvofiq:

1. Hududiy turistik klaster doirasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari va chora-tadbirlari;

2. Hududiy turizm sohasining tashkiliy tizimi hamda institutsional asoslarini takomillashtirish yo'nalishlari va chora-tadbirlari.

1. *Hududiy turistik klaster doirasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim:*

- 1.1. Klaster doirasida o'zaro hamkorlik aloqalarining samaradorligini o'stiruvchi loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashish;

- 1.2. Hududda klasterli siyosatni amalga oshirishni metododik, axborot-konsultativ jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- 1.3. Hududiy turistik klasterlarning shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlash;

- 1.4. Hududiy klaster shakllanishining tashkiliy jihatlarining rivojlanishiga ko'maklashish.

Umuman olganda, klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun zaruriy investitsiyalarni jalb etishning bir necha usullari mavjud. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: to'g'ridan-to'g'ri davlat byudjetidan moliyalashtirish; davlat tomonidan tartibga solishning turli xil me'yoriy-huquqiy, iqtisodiy dastaklaridan

foydalangan tarzda moliyalashtirish; moliyalashtirishning davlat byudjetidan tashqari manbalari; turistik klaster a'zolarining birlashtirilgan mablag'lari asosida tashkil etilgan "Jamoat fondi" orqali moliyalashtirish; turistik klaster a'zosining alohida shaxsiy mablag'lari asosida moliyalashtirish.

Shunday qilib, hududiy turistik klasterlarni shakllantirish tadbirlarini moliyalashtirishning manbalari quyidagilardan iborat:

1. Byudjet resurslari va vositalari:

a) Bevosita moliyalashtirish (byudjetdan to'g'ridan-to'g'ri);

b) bilvosita moliyalashtirish (soliq imtiyozlari, ijara haqini kamaytirish va h.k.);

2. Xususiy ichki manbalar:

a) shaxsiy vositalar;

b) kredit, zayomli vositalar va h.k.;

3. chet el investitsiyalari.

Turistik klasterlarni moliyalashtirish yo'nalishlari quyidagilardan:

– Turistik klasterlarni shakllantirishning tashkiliy harajatlari;

– Turizm infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish harajatlari;

– Turistik klaster doirasida turistik ob'ektlarni yaratish sohasidagi loyihalarni moliyalashtirishdan iboratdir.

Turistik klasterlarni shakllantirishning tashkiliy harajatlari klaster a'zolarining shaxsiy mablag'laridan moliyalashtirilsa, turizm infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish hamda klaster doirasidagi alohida loyihalarni amalga oshirish uchun aralash tarzda moliyalashtirish usullaridan foydalaniladi

Xorijiy mamlakatlarning klasterlarni rivojlantirishga oid tajribalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, klasterli tashabbuslarni davlat byudjetidan moliyalashtirish hajmi jalb qilinadigan jami investitsiyalar hajmining 50% ni tashkil etishi kuzatilgan. Shuning uchun, klasterli tashabbuslarni davlat byudjetidan moliyalashtirish istiqbolli usul hisoblanadi. Bu holda davlat byudjetidan moliyaviy mablag'larning ajratilishi uchun turistik klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish loyihasi davlatning maqsadli dasturiga aylanishi lozim.



Bugungi kunda klasterli tashabbuslarni, davlat tomonidan tartibga solishning turli xil iqtisodiy va ma'muriy dastaklaridan foydalangan tarzda, moliyalashtirishning turli xil usullari mavjud:

- Davlat byudjetidan tanlov asosida subsidiyalar ajratish;
- Klaster doirasida kichik biznes va tadbirkorlarning faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan nchora-tadbirlar;
- Ilmiy salohiyatdan foydalanish bo'yicha Markazlarni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish;
- Klaster doirasida faoliyat yurituvchi tashkilotlarda boshqaruv xodimlarining malakasini oshirishga qaratilgan tadbirlarni davlat byudjetidan moliyalashtirish;
- Xorijiy mamlakatlardagi xalqaro yarmarka va ko'rgazmalarda qatnashuvchilarga moliyaviy yordam berishv.h.k.

Klasterli tashabbuslarga davlat byudjeti mablag'larini jalb etish uchun hududiy turistik klaster faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash hamda turistik klaster a'zolari Assotsiatsiyasi quyidagi yo'nalishdagi tadbirlarni:

- Davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabulqilinadigan maqsadli dasturlar, turli sohalardagi fundamental loyihalarning tanlovi bo'yicha kuzatuv va tahliliy tizimni shakllantirish;
- Respublika yoki hududiy davlat dasturlarida qatnashish imkoniyatlari va sharoitlarini aniqlash;
- Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga yo'naltirilgan loyihalar majmuini, loyihaning moliyaviy modelini ishlab chiqish, loyihaning byudjet va iqtisodiy samaradorligini aniqlash va hujjatlarda aks ettirish;
- Loyihalarni moliyaviy-iqtisodiy asoslab beruvchi hujjatlarda itagini ishlab chiqish;
- Tanlovda qatnashish bo'yicha zaruriy hujjatlarni tayyorlash.

### **3.3. O'zbekiston Respublikasi turizmini rivojlantirishda turistlar xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari**

«Turizm xavfsizligi» keng ma'noli tushuncha bo'lib, turizmda xavfsizlik turist va uning yuklarining xavfsizligi, turistlik muhit qatnashchilarining muhim hayotiy qiziqishlarini ichki va tashqi xavflardan, hamda turizm rivojlanishida atrof-muhitni salbiy omillardan himoyalanganligi tushuniladi.

Turizmdagi xavfsizlik – bu turist hayoti va sog'lig'ini saqlash maqsadida, hamda unga va atrof–muhitga (jamoaga, jamiyatga, davlatga, tabiatga) etkazilgan zararlarni minimallashtirishga qaratilgan majmualii tadbirlardir. Dunyoda bo'lib o'tayotgan voqea hodisalar xavfsizlik masalasi qanchalik muhimligini ko'rsatmoqda va bu erda nafaqat mamlakat ichki tartibi, balki xalqaro darajada muvofiqlashtirish talab etiladi. Turizmda xavfsizlikni ta'minlash borasidagi qarorlar turistlik faoliyat sohasidagi qonunlarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Xavfsizlikni ta'minlash sohasida uni tor va keng ma'noda ko'rib chiqish mumkin.

Keng ma'noda bu erda umumiy tushunchaga ega huquqiy me'yorlar (aktlar) kiritiladi, ularda turizm xavfsizligi to'g'risida ham alohida me'yorlar ko'rsatilgan. Masalan: «Sug'urtalash to'g'risida», «Prokratura to'g'risida», «Sudlar to'g'risida», «Iste'molchilar huquqini himoya qilish to'g'risida», «CHegara to'g'risida», «Pasport to'g'risida», «Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmaganlar to'g'risida», vazirliklar, hukumat va hokimiyat qarorlari, korxonalar qarorlari va boshqalar.

Turizmda xavfsizlik 5 tamoyillar asosida ta'minlanadi:

1. Milliy qonunlar, xalqaro huquqlar asosida turistlarni jo'natuvchi yoki qabul qiluvchi davlat ularni himoya qilishi, panohiga olishi shart. Mamlakatda xorijiy turistlar kelishini nazorat qiluvchi, shaxsiy mulkini shaxsiyatini himoya qiluvchi, joriy-qidiruv ishlarini olib borish, sug'urta to'lovlarini to'lash, valyuta ayriboshlash, madaniy qiymatga ega buyumlarni olib chiqish, axborot olishga imkoniyat, diplomatik va advokat ko'magi va boshqa masalalarga tegishli huquqiy – me'yoriy aktlar qabul qilinadi. Turistlik firmalar litsenziya oladilar va mahsulotlarini sertifikatlaydilar. Xalqaro me'yorlar aviatashuchilar, suv transporti

kompaniyalari, avtokorxonalaridan avariya va favqulodda hodisalarni oldini olish maqsadida yagona va universal standartni bajarishni talab qiladi.

2. Makrodarajadagi tashkiliy mexanizmlar asosida. Bevosita va bilvosita turistlar xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq davlat va jamoa tarkiblari yordamida. Bular huquqiy, tartibni saqlash kuchlari (militsiya, razvedka xizmatlari) jinoyatchilik rivojini oldini oladi; bojxona tarkibi – bular, eksport – import, kontrabanda bilan kurashadilar; qutqaruv xizmatlari (tog' hududlarida, o'rmonlarda, yong'indan, tibbiy, FHV va boshqalar.) – odamlarni tabiiy ofatlar va texnogen xavflari mavjud joylardan qutqaradilar. Tashqi ishlar vazirligi – vaqtinchalik kelgan mamlakatda har xil holatlarga tushib qolgan fuqarolarga konsullik himoyasi xizmatini taqdim etadilar. Soliq qo'mitasi – iqtisodiy jinoyatchilikga qarshi kurashadi, standartlashtirish xizmati – iste'molchilarga taklif etiladigan tovar va xizmatlar soni va sifatini nazorat qiladi, prokuratura – davlat va shaxsga qarshi harakatlarni oldini oladi, veterinariya va sanepidemiologiya xizmati – sanitariya talablarini tekshiradi va b.

3. Mikrodarajadagi tashkiliy mexanizm asosida. Bu sayohatchilarga bevosita xizmatlar taklif etuvchi turistlik korxonalaridir. Masalan: turfirma marshrutni sertifikatlaydi, sug'urta kompaniyasi – sayohatchini sug'urtalaydi, mehmonxona-yong'in va epidemiologik xavfsizlikni ta'minlaydi, avtoransport korxonalarini mashinalarning texnik ahvolini tekshiradi.

Mahalliy jamoa ham tashrif buyuruvchilarga xavfsizlikni ta'minlashlari shart. Buning uchun gidlar maxsus tayyorgarlikdan o'tadilar, marshrutlar xavfsizligi (yo'llar toshloq, zaharli o'simliklar, yovvoyi hayvonlar) tekshiriladi, turistlarga maxsus moslamalar (palatka, qutqaruv jileti, dori-darmon) bilan ta'minlanadi, qutqaruvchilar va o'rmon xizmatlari guruh kelgani va ularning bu erda bo'lish muddati haqida ogohlantiriladi va boshqalar.

Turistning o'zi ham xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi shart. Ya'ni, uning hayoti va sog'lig'iga nimlar xavf solishini anglashi, qabul qilingan talablarga rioya qilishi, hushyor bo'lishi shart.

4. Iqtisodiy mexanizmlar asosida. Xavfsizlik ta'minlanishining iqtisodiy mexanizmlari turist hayoti va mulkiga zarar etkazilganda uni qoplashni nazarda tutadi. Masalan: sug'urta kompaniyasining sug'urta fondi zaruriy summani to'lashga qurbi etadigan bo'lishi kerak. Davlat muhim organlar faoliyatini kerakli darajada moliyalashtirishi zarurkim, ular o'z vazifalarini ya'ni, yo'qolgan turistlarni izlash, jinoyatchilardan himoyalash, kasalliklardan davolashlarni bajarishsin.

5. Ijtimoiy – madaniy va siyosiy darajada xavfsizlik deganda jamiyatni boshqa ijtimoiy qarashlardan – diniy, g'oyaviy, udumlarning buzulishi va boshqalar nazarda tutiladi. Afsuski turizm alkogolizm, narkomaniya va boshqa salbiy oqibatlariga ham sabab bo'lmoqda. Bu erda xalqaro terrorizmga qarshi kurash, diniy ekstremizmga qarshi davlatlararo koalitsiyalarni tuzish ham e'tiborga olinmoqda.

Xalqaro turizmدا turistlarining hayoti xavfsizligini ta'minlashning huquqiy me'yorlari. Insonning hayoti xavfsizligini ta'minlash hamma vaqtda ham avvalo insonning o'z hayotini muhofaza qilish, sog'lig'ini saqlash, yashash istagi hissiyotlaridan kelib chiqadi.

Bir mamlakatdan o'zga mamlakatlarga sayohat qilmoqchi bo'lgan turist albatta, bu mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat bilan qiziqadi, axborotlarni to'playdi va ko'ngli tinchligi, xavotir yo'qligidan aniq bir qarorga keladi.

Turizmning xalqaro miqyosida rivojlanib borayotganligining sabablaridan biri xalqaro nizolarning pasayishi, qurollanishning susayganligi natijasida jahon xalqlarining biri-biriga qiziqishi, ko'rishishga, muloqot qilishga, xalqlarning tarixiy-ma'naviy madaniyatiga, xalqlar yashayotgan davlatlar tabiatiga qiziqishi, intilishi hisoblanadi.

Turizmdagi xalqaro huquq-me'yorlarini qabul qilgan mamlakatlarda turistlar ana shu huquq-me'yorlarga ishonib, suyanib erkin harakat qilishadi. SHu bilan birga, turizm rivojlanishida turistlik oqimlarning muayyan davlatda yoki davlatlarda ko'payishi turizmdagi xalqaro tashkilotlarning faoliyatiga ham bog'liq bo'ladi. Har bir davlatda, shuningdek xalqaro miqiyosda turizmni tashkil etishning

eng muhim elementlaridan biri – turistlarning sog'lig'i va hayoti xavfsizligining ta'minlanishi hisoblanadi.

Turistlarning hayoti xavfsizligi va buyumlarining saqlanish kafolati xalqaro miqiyosda va davlatlar hududlarida harakatlanish xavfsizligidagi juda ko'p majmual tadbirlarning qonun himoyasida ta'minlanishni talab qiladi.

Turizmning xalqaro xavfsizligidagi xalqaro tajribalarni Butunujahon turistik tashkiloti (BTT) tadqiq qiladi va tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarni turizm to'g'risidagi qonun va huquqiy-me'yoriy hujjatlr qabul qilgan davlatlarga ko'rsatma – yo'llanma sifatida taqdim qilib kelmoqda.

Sayohatlarning xavfsizligini ta'minlash xaqidagi Xartiya 1985 yil BTT dagi Bosh Assambleyaning VI – sessiyasida qabul qilingan. Xartiya tarkibi 9 ta modda va turist kodeksi, turist kodeksi ham yana 9 ta moddadan iborat.

Xartiyaning IV moddasida turistlarning sog'ligi va hayoti xavfsizligini ta'minlashda, ularning buyumlarining saqlanishi, har bir davlat hududlarida erkin harakat qilishida quyidagi talablar bajarilishi dunyodagi barcha davlatlarga tavsiya qilingan:

- ❖ davlatlarning ma'sulligi;
- ❖ turistlarga imkoniyatlarning yaratilishi – o'z davlatida va chet ellik turistlar uchun sayohatlar davrida BMT, BTT, Xalqaro fuqarolar aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro dengiz tashkiloti, Xalqaro bojxona hamkorligi Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlarining turizm to'g'risidagi, xalqaro turizm to'g'risidagi “Holatlar”, “Dasturlar”, “Huquqiy-me'yorlar” bilan tanishi, o'rganish, foydalanish sharoitlarini yaratishlari;
- ❖ turistlarning bilimi va madaniyati o'sishiga hamkorlik qilishi va etib kelgan davlatlarning mahalliy aholisi bilan bo'lgan muloqatlarda, aloqalarda o'zaro tushunish, o'zaro do'stona muhitlarining yaratilishi;
- ❖ turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlash va buyumlarining saqlanish chora-tadbirlarini xalqaro qonunlarga mos holda ishlab chiqishi;

❖ gigiena va sog'liqni saqlash xizmatlariga murojaat qilish, yordam olishning barcha shart-sharoitlarini yaratishi, yuqumli kasalliklar va baxtsiz hodisalardan saqlanish haqida ogohlantirish;

❖ turizmda buzg'unchilik maqsadlaridagi qilingan har qanday xatti-harakatlarning oldini olish;

❖ turistlar va mahalliy aholini giyohvandlik moddalaridan noqonuniy foydalanish manbalaridan himoya qilish tizimlarini ishlab chiqishi kabi xalqaro turizm huquqiy-me'yorlari ishlab chiqilgan.

BTT ning davlatlar o'rtasida obro'sini ko'targan va konferensiyalar ishlab chiqilgan tavsiyalar, ko'rsatmalar, yo'llanmalarining aniqligi, joriy etishga qulayligi va tushunarli ekanligi bo'yicha BTT ning "Jahon turizmi bo'yicha Manila deklaratsiyasi" ni qabul qilgan Turizm bo'yicha butunjahon konferensiyasi qarorlari muhim ahamiyatga ega.

Konferensiya 1980 yil 27 sentyabrdan 20 oktyabrgacha Filippin davlatining poytaxti Manila shahrida bo'lib o'tdi. Konferensiyaga 107 davlatning delegatsiyalari va 91 delegatsiya kuzatuvchi sifatida qatnashdi.

❖ Manila konferensiyasidagi eng muhim qaror va tavsiyalar xalqaro miqyosida va davlatlarda turistlarning hayoti xavfsizligini, sog'lig'ini ta'minlash va ularning buyumlarini saqlash, davlatlarda turistlarning erkin harakatlariga barcha shart-sharoitlarni yaratish natijasida xalqlar, elatlar va millatlarning do'stona aloqalariga asoslar yaratiladi, millatlar o'rtasidagi urf-odatlarini o'rganish, qiziqish natijasida bir-biriga yaqinlik qiluvchi davlatlararo madaniyat markazlari kelib chiqadi.

Konferensiyaning tinchlik shiori – "Dunyoda tinchlikni, hamkorlik, hamjihatlikni saqlash, xalqlarning madaniy merosini rivojlantirishda turizmning hissasi" mavzusi qabul qilindi. Manila konferensiyasida 27 sentyabr "Butunjahon turizm kuni" deb belgilandi.

Xalqaro turizm va davlatlar turizmida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha aniq va jiddiy tavsiyalarni ishlab chiqqan xalqaro konferensiyalarning eng

obro'lisi, tan olingani BTT ning "Turizm bo'yicha "Gaaga deklaratsiyasi" qabul qilinishi bo'ldi.

Butunjahon turizm tashkilotining (BTT) dunyo davlatlarining Parlamentlararo turizm bo'yicha xalqaro konferensiyasi Niderlandiyaning Gaaga shahrida 1989 yilning 30 martidan 14 aprelegacha bo'lib o'tdi. Konferensiya ishida Parlamentlararo ittifoq (MGTS) vakillari ham qatnashdi. Bu xalqaro tashkilotni Niderlandiya davlatning parlamenti taklif qilgan edi.

Konferensiya birinchi navbatda BMT ning jahon davlatlarida turizmni rivojlantirishda BTT ning mehnatlari va muhim mavqe'ga ekanligini e'tirof etdi.

Ikkinchidan, jahon turizmining rivojlanayotganligida xalqaro tashkilotlar: xalqaro mehnat tashkiloti (MOT), Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ), BMT ning fan va madaniyat, ma'orif tashkiloti (YUNESKO), Xalqaro fuqaro aviatsiyasi (MKAO), atrof-muhit bo'yicha BMT dasturi (YUNEP), xalqaro jinoiy qidiruv politsiyasi (INTERPOL) va xalqaro iqtisodiyot hamkorlik va rivojlantirish tashkilotlari BTT bilan mustahkam aloqada bo'ldilar, yordam berdilar.

Turizm bo'yicha Gaaga deklaratsiyasi 10 ta tamoyilni qabul qildi va dunyo mamalakatlariga tarqatdi. Deklaratsiya jahonda turizmning rivojlanishida turizm xavfsizligi xalqaro miqiyosda va milliy davlatlar miqiyosida ta'minlanishi shartligini ta'kidladi. Bunga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirishni tavsiya qiladi:

- ✓ turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlash me'yorlarini ishlab chiqish va turizmda joriy qilish;
- ✓ jamoatchilikka aniq axborotlarni etkazish va tarqatish;
- ✓ turistlarning xavfsizligini o'rganuvchi va ta'minlovchi, ayniqsa ekstremal vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlashni tadqiq qiluvchi institutsional markazlar tashkil qilish;
- ✓ turistlarning xavfsizligini ta'minlashda xalqaro, qit'alararo hamkorlikni tashkil qilish va harakatlantirish;
- ✓ Gaaga deklaratsiyasining turistlarning sog'lig'i va hayoti xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalari;

✓ turistlarni hurmat qilish, qadr-qimmatini, huquqini va xavfsizligini himoya qilish turizm rivojlanishining ajralmas qismidir.

✓ turistlarning qadr-qimmatini, hayoti xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari ular harakatlanadigan barcha turistlik ob'ektlarda, safarda, sayohatda, mehmonxonalarda ishlab chiqilgan va bartaraf etilgan bo'lishi;

✓ turistlik ob'ektlarga va turistlar hayotiga xavf soluvchi vaziyatlar va omillar haqidagi barcha axborotlar, ma'lumotlarni turistlarga o'z vaqtida etkazishini ta'minlash;

✓ har bir davlatda turistlarning erkin harakat qilish, xavfsizligini ta'minlashning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilishi va qabul qilishishga erishish, har bir davlatda turistlarning huquqini himoya qilish organlariga o'z vaqtida murojaat qilishi, o'zining haq-huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarining yaratilishiga erishish;

✓ turistlarni himoya qilish, hayoti xavfsizligini ta'minlashdagi huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish, xavfqa qarshi chora-tadbirlar tizimini yaratishda har bir davlatlarning BTT bilan o'zaro hamkorlik qilishni ta'minlash.

Gaaga deklaratsiyasida qabul qilingan yana bir muhim hujjat shundan iborat bo'ldiki, terrorizm turizm va turistlik harakatlanishning rivojiga real xavf deb tan olindi. Jahondagi davlatlarga terroristlarga har xil siyosiy sabablarni ro'kach qilib boshpana berish hollari jahon miqiyosida qoralanishi e'tirof etildi.

Xalqaro turizm xavfsizligi va turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlashda BTT ning 2001 yil 30 sentyabr – 1 oktyabrda YAponiyada (Ming yillikning Osaka deklaratsiyasi) o'tkazilgan konferensiyasi, MDH davlatlarining “Turizm sohasida hamkorlik” – Ashgabat 23 dekabr 1993 yil, 29 oktyabr 1994 yil, 4 noyabr 1994 yil Osaka deklaratsiyasi, Turistlik faoliyatni tashkil qilish Evropa Kengashi, 2 noyabr 1981 yil Nepaldagi Xalqaro mehmonxona qoidalari assotsiatsiyasi muhim qarorlar qabul qildi, tavsiyalar ishlab chiqib dunyo mamalakatlariga tarqatdi.

SHuningdek, “Afina konvensiyasi” turistlarning yuklarini tashishdagi xalqaro huquq me'yorlarini ishlab chiqdi. Turagentliklar assotsiatsiyasining Butunjahon federatsiyasi (UFTAA) va Butunjahon mehmonxonalar assotsiatsiyasi



(MGA) mehmonxonalarda turistlarni joylashtirish, ularning faol harakatlarini tashkil qilish, sog'lig'i va hayoti xavfsizligini ta'minlashning xalqaro huquqiy mezonlarini ishlab chiqdilar va bu haqda BTT ga a'zo bo'lgan davlatlar o'z milliy turizm siyosatiga mos bo'lgan huquqiy me'yorlarni qabul qilishini tavsiya qildi. Qayd qilish lozimki, BTT 1994 yilda o'z boshqaruvi tarkibida "Turistlik xizmatlar sifati" bo'yicha komitet tashkil qildi. Bu komitet xalqaro turizmda sayyohlarning havfsizligi masalalariga ham javob beradi. Xuddi shu yili BTT dunyoning 73 mamlakatlarida "Sayyohlarni (turistlarni), turistlik ob'ektlarni himoya qilish va xavfsizligi" mavzusida xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirishning tashabbusi bilan 1995 yilning yozida SHvetsiya davlatining Esterund shahrida "Sayohat davrida xavflarni kamaytirish va turizm xavfsizligini ta'minlash" mavzusida P xalqaro konferensiyasi o'tkazildi.

Turizm mamalakatlarining 21% ida maxsus turizm politsiyasi tashkil qilingan bo'lib, bu politsiya faqat turizm faoliyati bilan shug'ullanadi. Turizm politsiyasi zimmasiga turizm resurslarini va atrof-muhitni muhofaza qilish, giyohvandlikga qarshi kurashish, mahalliy etnik guruhlarini himoya qilish vazifalari ham yuklatilgan.

Xalqaro turizm amaliyotidan ma'lum bo'ladiki, ko'pgina davlatlarning turizm boshqaruvi turistlarining dunyo davlatlariga, mintaqalariga borishi yoki bormasliklari, xavfsizlikning holati, darajalari, ushbu davlatlarda turizm siyosati va himoya turizmi haqida aniq tavsiyalar ishlab chiqadi va o'z ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda tavsiyalar berib boradi.

***O'zbekiston Respublikasining qonun va qarorlarida turistlarning hayoti xavsizligining ta'minlanganligi.*** Turizm ta'limidagi barcha mutaxassislar ushbu qonun moddalarini yaxshi o'zlashtirishi, mukammal bilishi nuqtai nazaridan qayd qilingan moddalarni keltirish o'rinli bo'ladi. «Turizm to'g'risida» gi qonunning:

***18 – moddasi: «Turistlarning xavsizligi kafolati».***

O'zbekiston Respublikasi hududida turistlarning xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanadi. Turizm sohasidagi vakolatli davlat organi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda turistlarning himoya qilinishini hamda

xavfsizligini ta'minlash dasturini ishlab chiqadi va uning bajarilishini tashkil etadi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari turizm sohasida barcha turistik yo'nalishlar bo'yicha turistlarning himoya qilinishini va xavfsizligini ta'minlash mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqadilar va ularning bajarilishini tashkil etadilar.

Turistik faoliyat sub'ektlari turistlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ular jarohatlanganda, kasallanganda va boshqa hollarda tibbiy va o'zga xil yordam ko'rsatish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqadilar.

***19–moddasi: Turistlarning xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari.***

Turistik faoliyat sub'ektlari turistlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida:

❖ turistlarning safarda xavf – xatardan xoli bo'lishlari uchun shart-sharoitni, safar, sayr, ekskursiya yo'llari, musobaqalar o'tkaziladigan joylarning ta'minlanishlari;

❖ turistlarga jarohatlanish va baxtsiz hodisalardan saqlanish hamda ularning oldini olish usullarini o'rgatishlari, birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish yuzasidan yo'l-yo'riq berishlari, shuningdek, belgilangan yo'nalishning xususiyati va turistlarning hatti-harakatiga bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf manbalari haqida ularning o'zini xabardor qilishlari;

❖ turistlarning sayohatlar, safarlar, musobaqalar, boshqa turistik tadbirlarga tayyorgarligi ustidan nazoratni amalga oshirishlari;

❖ falokatga uchragan turistlarga tezkor yordam ko'rsatishlari;

❖ avtomobil, tog'-chang'i, velosiped, suv, mototsikl, piyoda safar, g'or tuizmi va turizmning boshqa maxsus turlarini tashkil etish va o'tkazishda xavfsizlikning alohida talablarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari shart;

**20–moddasi: «Turistlarni sug'urta qilish».**

Turistlarni sug'urta qilish majburiydir va u turistik faoliyat sub'ektlari tomonidan sug'urta faoliyati olib borish huquqiga ega bo'lgan tegishli sug'urta tashkilotlari bilan tuziladigan bitimlar asosida amalga oshiriladi.

Butunjahon turizm tashkiloti (WTO) talablari bo'yicha har bir davlatda turistlarning ushbu davlatga kelib –ketishi bo'yicha davlat nizomi bo'lishi lozim.

Bizning Respublikamizda ham xudi shunday nizom hukumatimizning maxsus vazirliklari tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sayyohlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida» gi qaroriga muvofiq quyidagi moddalar turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan:

- ❖ xavf-xatar manbalari bo'lgan hududlarga chet ellik sayyohlarni olib chiqishlaridan oldin, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining tegishli boshqarmalaridan baxtsiz hodisalar yoki xavf-xatarlar kelib chiqishi mumkin bo'lishi yoki bo'lmasligi yuzasidan tegishli ma'lumotlar olish;

- ❖ ruxsat etilgan xavfsiz yo'nalishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining tegishli hududiy boshqarmasi bilan kelishilgan holda belgilangan xavfsiz yo'nalish bo'yicha sayyohat qilishni ta'minlash;

- ❖ belgilangan yo'nalishning xususiyati va sayyohlarning hatti-harakatiga bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatar manbalari haqida ularning o'zini xabardor qilish va xavfsizligini ta'minlash;

- ❖ qabul qiluvchi turistlik tashkilot chet el sayyohlari bilan xavfsizlik choralariga rioya etishlari, O'zbekiston Respublikasida bo'lish tartibi, ekologik xavfsizlik talablari, milliy urf-odatlariga hamda sanitariya-gigiena qoidalariga amal qilishlari to'g'risida tegishli tushuntirish ishlarini o'tkazadi.

Turizm marshrutlarida turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlashda kutiladigan va kutilmaydigan xavflarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Ekologik turizm marshrutlarini ishlab chiqish mavzusida – «Ekologik turizm marshrutlarida turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlash» yuzasidan marshrut rahbari amalga oshiriladigan ishlar ro'yxati keltirildi.

Turistik marshrutlarning barchasida turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlash chora tadbirlari ishlab chiqilishi va marshrutni o'tkazadigan turistlik tashkilot rahbarining imzosi va gerbli muhri bilan rasmiylashtirilishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta‘minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro‘yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog‘ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ‘ib qilish imkonini berdi.

Turizmni, avvalambor, xususiy sektorda rivojlantirish uchunqulay shart-sharoitlar yaratish, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ‘ib qilish, bularning barchasi 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiqdir.

Mamlakatimizda milliy turizmni tartibga solishda asosiy bosh hujjat bu O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi hisolanadi. Undan so‘ng esa 1999 yil 20 avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining turizm to‘g‘risidagi qonunidir. Ushbu Qonunning maqsadi turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek turistlar va turistik faoliyat sub‘ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Ayniqsa, turizm bozorida turistik faoliyatni huquqiy ta‘minlash va tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari muhim o‘rinni egallab kelmoqda. Hususan 2016 yil 2 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-son farmoni milliy turizmni rivojlantirishdagi ulkan qadam bo‘ldi.

Unda mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, turizm tarmog'ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ'ibot qilish, turizm sohasida O'zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish maqsadida: turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan.

Turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasini shakllantirish va izchil amalga oshirish, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohani barcha hududlarni va o'zaro bog'liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlantirishning yetakchi kuchiga aylanishi lozim bo'lgan iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, tarkibiy o'zgartirish va barqaror rivojlanishning qudratli vositasiga aylantirish, yaratiladigan yalpi ichki mahsulotda, mahalliy byudjet daromadlarida turizmning ulushini ko'paytirish, ish bilan bandlikni ta'minlash, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Turizm industriyasi sub'ektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga yo'naltirilgan turizm faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, turizmning rivojlanishidagi barcha to'siq va g'ovlarga barham berish, viza va ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini, pasport va bojxona nazoratini soddalashtirish, turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish va bozorga xos tarzda tartibga solish mexanizmini maqbullashtirish, turizm sohasida tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish va turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, turizm sohasida statistik hisobga olish tizimini takomillashtirish;

Turizm xizmatlarini tashkil etishda, eng avvalo, turistlar joylashtiriladigan joylarda, ovqatlanish punktlarida, respublika hududi bo'ylab harakatlanishda, turizm ob'ektlariga tashriflarni uyushtirishda turistlar va ekskursantlarning hayoti va sog'ligi xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini — ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, o'smirlar va yoshlar turizmini, oilaviy turizmni, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish hisobiga turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish, hududlarda yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish, ularni pasportlashtirish, turizm yo'nalishlari va turizm ob'ektlari bo'yicha yagona milliy reestrlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

Turizm faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni, birinchi navbatda, BMTning Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO), xorijiy mamlakatlarning turizm bo'yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlari — turizm xizmatlari mintaqaviy va jahon bozorlarining faol ishtirokchilari bilan hamkorlikni kengaytirish, O'zbekistonning turizm sohasida tartibga soluvchi universal xalqaro konvensiyalar va bitimlardagi ishtiroki, turizm faoliyati amaliyotiga xalqaro va davlatlararo standartlar va normalarni joriy etish;

Respublikaning barcha mintaqalarida zamonaviy jahon standartlariga, turistlarning ehtiyojlari va talablariga javob beradigan turizm industriyasi ob'ektlarini — mehmonxonalarini va joylashtirishning shu kabi vositalarini, umumiy ovqatlanish ob'ektlarini, transport-logistika tuzilmalarini, axborot markazlarini, madaniyat va sport muassasalarini jadal rivojlantirish, asosiy turizm yo'nalishlari bo'yicha yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini, yo'l bo'yi infratuzilmasini jadal qurish va rekonstruksiya qilish, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investorlarni keng jalb etish;

Xalqaro turizm rivojlanishi tendensiyalarini va zamonaviy marketing vositalari qo'llanilishini hisobga olgan holda, raqobatbardosh turizm mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish, ularni ichki va xalqaro turizm bozorlarida targ'ibot qilish bo'yicha strategiyani ishlab chiqish, qulay turizm axborot muhitini tashkil

etish va rivojlantirish, keng reklama-axborot faoliyatini amalga oshirish, mamlakat hududlarida turizm axborot markazlari va chet elda turizm vakolatxonalari ochish, Internet tarmog'idan faolfoydalanish, har yili Toshkent xalqaro turizm yarmarkasini o'tkazish yo'li bilan turizm sohasida mamlakatimizning ijobiy qiyofasini shakllantirish;

Turizm tarmog'i uchun, ayniqsa menejment va marketing sohasida malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, gidlar (ekskursiya yetakchilari) tayyorlash, turizm faoliyati sub'ektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

«O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi negizida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitas itashkil etish.

Bir nechta mamlakatlar uchun 30 kunlik vizasiz rejimni joriy qilish va boshqa bir qator masalalar o'z yechimini topdi.

Xususan, qaror bilan sohada me'yoriy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistonga sayohatlarni arzonlashtirish, yurtimizning barcha hududlarida turizmni va soha bilan bog'liq infratuzilmani rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va yangi turizm obyektlari tashkil etish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda faol va kompleks ilgari surish hozirgi zamon talabi hisoblanadi.

## **Takliflar va tavsiyalar**

1. Sayyohlik (turizm) sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda.

Afsuski, O'zbekiston bu sohada hali ancha orqada ekanligini ko'rish mumkin. Xususan, Butunjahon turizm va sayohatlar bo'yicha kengashi (BTSK) tomonidan berilgan bahoga ko'ra, O'zbekiston sayyohlar tashrifi bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 150-o'rinni egallaydi.

Turizm sohasida faoliyat yuritmoqchi bo'lgan tadbirkorlarga imtiyozli kreditlarni berish hamda yer oldi-berdi ishlari yengillashtirilib, jahon andozalariga javob beradigan mehmonxonalar sonini ko'paytirish, shu orqali raqobatni kuchaytirish, mehmonxona narxlarini arzonlashtirish lozim. Chunki turpaketlar narxi oshgan sayin, yurtimizga keladigan sayyohlar soni ham pasayib boradi. Buning natijasida ular ancha arzon narxlarga ega bo'lgan boshqa mamlakatlarga borishni afzal ko'rishadi.

2. O'zbekistonni turistik davlat sifatida yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan soha mutaxassislari bilan hamjihatlikda O'zbekiston to'g'risida bitta ixcham «sayyohlar uchun qo'llanma» tayyorlanib, uni barcha tillarga tarjima qilib, arzon narxda yoki agarda imkoni bo'lsa, bepul chet sayyohlik firmalariga tarqatish.

3. «Buyuk ipak yo'li»da joylashgan mamlakatlar uchun yagona turizm vizasini joriy etish bu bilan O'zbekiston hamda bu hududda joylashgan turaperatorlarning umumiy ishlashi va ipak yo'lida joylashgan mamlakatlar uchun yagona turmahsulot yaratishga erishish lozim.

4. Mamlakatimizda turizm sohasiga horijiy investitsiyalarni yanada ko'roq jalb qilish yo'llarini qayta ko'rib chiqish va bu bilan horijiy investirlarga iqtisodiy hamda siyosiy jihatdan imtiyozlar yaratish maqsadga muvofiq deb o'ylayman.



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2014 y.
2. O'zbekiston Respublikasining “Turizm to'g'risida”gi Qonuni (1999 yil 20 avgust). O'zbekistonning yangi qonunlari. – T.: Adolat, 2000 y.
3. O'zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonuni (2012 yil 26 aprel).

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari**

1. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1999 yil 30 iyundagi “O'zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to'g'risida”gi Farmoni// “Lex.uz”.
2. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1997 yil 31 martidagi “Xalq amaliy san'ati va badiiy hunarmandchiligini rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni// “Lex.uz”.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdaagi “O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4861-sonli Farmoni// “Lex.uz”.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdaagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdaagi quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5242-sonli Farmoni.
6. “O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-2666-sonli Qarori//“Lex.uz”.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi "2018-2019 yillarda sayyohlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" gi PQ-3217-sonli Qarori//“Lex.uz”.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvoq" erkin turistik zonasini barpo etish to'g'risida 2017 yil 5 dekabrda PF-5273-son Farmoni//“Lex.uz”

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 yanvardagi . "Ichki turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3514-sonli buyrug'i//“Lex.uz”.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-sonli Farmoni// “Lex.uz”

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5611-son Farmoni//“Lex.uz”.

### **III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 3 iyundagi “O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infratuzilmasini barpo etish to'g'risida”gi 210-sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 8 avgustdagi “Sayyohlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida”gi 346-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2009 yil 29 iyuldagi “Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida”gi 216-sonli Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 2 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesi va xalqaro turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 310-sonli Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Turizm faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 189-sonli Qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 2 sentyabrdagi "Farg'ona viloyatining Marg'ilon, Qo'qon shaharlari va Rishton tumanida hunarmandchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 687-sonli Qarori.

7. "O'zbekiston respublikasida turizm sohasini yanada qo'llab-quvatlash va rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 15 mart 137-sonli Qarori.

#### **IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'ruzalari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 29 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.

#### **V. Mamlakatimiz va xorijiy olimlarning adabiyotlari**

1. Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: "Fan va texnologiya", 2018 y.

2. Tuxliev N., Abdullaeva T. Formalnosti v sisteme turizma Respubliki Uzbekistan - T: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2007.

3. Tuxliev N., Abdullaeva T. Menedjment i organizatsiya biznesa v turizme Uzbekistana. – T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.

4. Tuxliev N., Abdullaeva T. Natsionalnie modeli razvitiya turizma –T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.

5. Tuxliev N., Abdullaeva T. Osnovi bezopasnosti v turizme. –T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.
6. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 389 b.
7. Tuxliyev I.S., Qudratov G'.H., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya» 2010 – 263 b.
8. Tuxliyev I.S., Ibadullaev N.E. Turizm operatorlik xizmatini tashkillashtirishning asoslari. O'quv qo'llanma. – S.: SamISI, 2011.– 256 b.
9. Hayitboev R., Haydarov S., Abduxamidov S., Daminov M., Xamitov M. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish. O'quv qo'lanma. – S.: SamISI, 2016.-176b.
10. Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. – T.: «O'zbekiston faylafuslar jamiyati» nashriyoti, 2011.-273b.
11. Tuxliyev I.S, Qudratov G'.H., Turizm iqtisodiyoti. –S.: SamISI, 2007.
12. Tuxliyev I.S., A.B.Bektemirov, Z.I.Usmanova. Turizmda strategik marketing. O'quv qo'llanma. – S.: SamISI, 2010 y.- 144 b.
13. Juxova V.V., Rimskaya T.G. Turopereyting: Uchebnoe posobie. / Rimskaya-Naxodka: filial FGBOU VPO «VGUES» v g. Naxodke, 2014. – 128 s.
14. Il'ina E.N. Turopereyting: organizatsiya deyatelnosti. Uchebnik. – M.: Finansy i statistika, 2008. – 256 s.
15. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasining “Osnovie pokazateli razvitiya turizma i otdixa v respublike Uzbekistan v 2016 godu” nomli statistik byulleteni ma'lumotlari.
16. Fillipovskiy E.E., SHmarova L.V Ekonomika i organizatsiya gostinichnogo xozyaystva. Uchebnoe posobie.-M.: FiS, 2006.
17. Dr. Sampad Kumar Swain. Travel Agency and Tour Operations Management/ Dept.of Tourism & Hospitality, Indira Gandhi National Tribal University. Amarkantak. – 2014. – 304 p.
18. Mr. Alan Saffery, Ms. Michelle Morgan, and Mr. Otgonbaatar Tulga. The business of inbound tour operators/ Of the United States Agency for International Development or the United States Government.-2007. – 77 p.

19. Charles A. Goeldner, J.R. Brent Ritchie. Tourism principles, practices, philosophies, New Jersey, John Wiley & Sons, 2012. – 514p.

20. Tuxliyev I.S. va boshqalar. “O’zbekistonda turizm xizmat bozorini rivojlantirishning ijtimoiy – iqtisodiy muammolari” nomli monografiya. T.: “Iqtisodiyot” 2012.

21. Raximov Z.O., Xaitboyev R., Ibadullayev N.E., Safarov B.Sh., Turopereyting. O’quv qo’llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018. - 300 b.

22. Amriddinova R.S., Raximov Z.O., Aliyeva M., Ibadullayev N.E., Abduxamitov S.A. Mehmonxonalarda xodimlar faoliyatini boshqarish O’quv qo’llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018. - 300 b.

23. Safarov B.Sh. Mintaqaviy turizm xizmat bozorining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish // Monografiya. - Toshkent: «O’zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2013. - 150 bet.

24. Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya. - Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016. - 184 bet.

25. Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish /dis... i.f.d. Samarqand-2016.

26. Ibadullayev N.E. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida)/dis... i.f.n. Samarqand-2010.

27. Raximov Z.O. Turizm destinatsiyalarida strategik rejalashtirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish (Samarqand shahri misolida) /dis... i.f.n. Samarqand-2012.

28. Amriddinova R.S. Mehnat resurslarini boshqarish asosida turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish yo’llari (Samarqand viloyati turizm korxonalarida misolida) /dis... i.f.n. Samarqand-2012.

29. Alimova M.T. “Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida)”. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. 2017 y.

30. Norqulova D. “O’zbekistonda sotsial turizm xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (doctor of philosophy) dissertatsiyasi. 2018 y.

31. Usmanova Z.I. “O’zbekistonda turistik - rekreatsion xizmatlarni rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari” iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (doctor of philosophy) dissertatsiyasi. 2018 y.

## **VI. Internet saytlari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O’zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) – O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti
4. [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz) – O’zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti
5. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) – O’zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti
6. [www.review.uz](http://www.review.uz) – “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining rasmiy sayti
7. [www.cer.uz](http://www.cer.uz) – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
8. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com) – biznes axborotlari portali
9. [www.yeurasianews.com](http://www.yeurasianews.com) – Yevro-Osiyo tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
10. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – Milliy kutubxona portal

# ILOVALAR

**2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini  
rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha 2019-yilga  
mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasini**

<b>T/r</b>	<b>Tadbirlar nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
<b>C</b>				
1.	Yuqori turizm salohiyatiga ega bo'lgan hududlarda ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlaydigan maxsus tuzilmalarini tashkil etish, ularni zamonaviy texnik va transport vositalari bilan jihozlashni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xavfsiz turizmni ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihagini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi	15-fevralgacha	IIV (P. Bobojonov), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), manfaatdor vazirlik va idoralar
2.	Butunjahon turizm tashkilotining, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutuvchi metodologiyasi asosida turizm sohasida statistika yuritishni takomillashtirish: Turizm sohasidagi statistik ma'lumotlarning ochiqligini ta'minlash, ularni Butunjahon turizm tashkiloti, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sahifalariga joylashtirish; mamlakat hududlari kesimida asosiy statistik ko'rsatkichlarni yuritib borish.	Ijrochilar qarori	1-martgacha	Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), Davlat statistika qo'mitasi (B. Begalov), manfaatdor vazirlik va idoralar
3.	Xorijiy davlatlarda turizmni rivojlanish jarayonlari va milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda mehmonxona va turizm xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha davlat standartlarini takomillashtirish	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat	1-aprelgacha	Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), "O'zstandart" agentligi (D. Sattarov), manfaatdor vazirlik va idoralar



4.	Xorijiy tajribani inobatga olgan holda mehmonxona xizmati ko'rsatishning namunaviy tartibini ishlab chiqish.	Ijrochilar qarori	1-avgustgacha	Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), Savdo-sanoat palatasi (A. Ikramov), Adliya vazirligi (R. Davletov)
5.	Har bir hudud kesimida barcha turistik manbalar va obyektlarni (arxitektura, tabiiy va boshqa) ularning holatini "Qoniqarli", "Qayta ta'mirga muhtoj" (ta'mirlash, qayta ta'mirlash), "avariya (tashlandiq) holatida" tasniflari bo'yicha aniqlagan holda xatlovdan o'tkazish.	Yagona turistik manbalar va obyektlar reyestrini shakllantirish, pasportlar tayyorlash	1-sentabrgacha	Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (B. Kuchkarov), Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev), manfaatdor vazirlik va idoralar
<b>II. Respublika hududlarida turizm va u bilan bog'liq infratuzilmani rivojlantirish</b>				
6.	Davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida respublikaning har bir hududidagi sayyohlar ko'p tashrif buyuradigan joylar va sayyohlik marshrutlarida kamida 50 tadan sanitariya-gigiyena shoxobchalarini tashkil etish.	Ijrochilar qarori	yil davomida	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov)
7.	Sayyohlar orasida mashhur bo'lgan obyektlar, sayyohlik marshrutlarida va har bir hududning markaziy qismlarida turistik infokiosklarni tashkil etish.	Tashkiliy choralar	1-dekabr gacha	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov)
8.	Imkoniyati cheklangan shaxslarning turizm infratuzilmasi va madaniy meros obyektlarida erkin	Ijrochilarning qo'shma harakatlar rejasi	1-fevralgacha tasdiqlash	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va

	harakatlanishi uchun zarur sharoitni (“to’siqsiz muhit” hosil qilish) yaratish choralarini ko’rish.		1-iyulgacha amalga oshirish	Toshkent shahar hokimliklari, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (Sh. Kudbiyev), Sog’liqni saqlash vazirligi (A. Shadmanov), Turizmni rivojlantirish davlat qo’mitasi (A. Akkulov)
9.	Shu xorijiy tashkilotlarning moliyaviy mablag’lari va texnik ko’magini jalb qilgan holda, quyidagilarni nazarda tutuvchi Turizm infratuzilmasini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish: turistik namoyish obyektlarini bog’lovchi avtomobil yo’llarining holatini yaxshilash, shuningdek, yo’l va yo’l bo’yi infratuzilmasi obyektlarini yaratish, shu jumladan har 50 km masofaga hisoblaganda sanitariya-gigiyena shoxobchalari, kempinglar, motellar va boshqalarni tashkil qilish; transport logistikasini takomillashtirish, shu jumladan diqqatga sazovor joylar va madaniy obyektlar bo’ylab qulay transport marshrutlari tarmog’ini yaratish; madaniy meros obyektlari holatini yaxshilash, ushbu obyektlar atrofida sayyohlar uchun zarur infratuzilmani shakllantirish; marketing va brendni ilgari surishning samarali mexanizmini ishlab chiqish.	Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi	1-dekabrgacha	Turizmni rivojlantirish davlat qo’mitasi (A. Akkulov), Investitsiyalar bo’yicha davlat qo’mitasi (S. Bekenov), Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
10.	Zamonaviy turizm kompleksini yaratish, respublikaga tashrif buyuruvchilar va aholining turizm xizmatlariga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish uchun har bir hududda Turizm infratuzilma obyektlarini	Idoraviy hujjat	1-iyungacha	Qurilish vazirligi (A. Tuxtayev), “Yergeodezkadastr” davlat qo’mitasi (A. Abdullayev), Turizmni rivojlantirish davlat

	joylashtirishning bosh chizmasini ishlab chiqish va tasdiqlash.			qo'mitasi (A. Akkulov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirlik va idoralar
11.	Mamlakatning xalqaro aeroportlari va temir yo'l vokzallarida ibodat qilish va tahorat olish uchun maxsus joylar tashkil qilish.	Tashkiliy choralar	1-iyungacha	"O'zbekiston havo yo'llari" MAK (B. Xakimov), "O'zbekiston temir yo'llari" AJ (F. Sagdullayev)
12.	Zamonaviy ko'p qavatli avtoturargohlar qurish, shuningdek, Toshkent shahridagi xalqaro aeroport yonida transport logistikasini takomillashtirish.	Tashkiliy-amaliy choralar	1-iyulgacha	Toshkent shahar hokimligi (J. Artikxodjayev), Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi (S. Bekenov)
13.	Quyidagi yo'nalishlarda tasdiqlangan grafik bo'yicha muntazam ravishdagi shaharlararo avtobus qatnovini, shu jumladan tadbirkorlik subyektlarini jalb qilgan holda yo'lga qo'yish: "Toshkent — Samarqand — Buxoro — Xiva — Nukus"; "Toshkent — Guliston — Jizzax — Samarqand — Qarshi — Termiz"; "Qo'qon — Farg'ona — Andijon — Namangan".	Tashkiliy choralar	1-iyungacha	O'zbekiston avtomobil transporti agentligi (D. Dexkanov), Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi (A. Abduvaliyev), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov)
14.	Transportning turli yo'nalish va turlarini qulay tarzda o'zaro bog'lovchi avia, temir yo'l va avtobus qatnovlari sonini oshirishni nazarda tutuvchi Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro transport kommunikatsiyasini rivojlantirish Konsepsiyasini ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Normativ-huquqiy hujjat	1-martgacha	O'zbekiston avtomobil transporti agentligi (D. Dexkanov), "O'zbekiston havo yo'llari" MAK (B. Xakimov), "O'zbekiston temir yo'llari" AJ (F. Sagdullayev), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), TIV (A. Komilov)

15.	Mamlakatda sport turizmining bugungi kundagi holatini tahlil qilish, Sport turizming yanada rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Tahliliy ma'lumot Tadbirlar rejasini tasdiqlash	1-fevralgacha 15-fevralgacha	Jismoniy tarbiya va sport vazirligi (D. Nabiyev), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), manfaatdor vazirlik va idoralar
16.	Ekologik turizmni amalga oshirish uchun yer maydonlarini aniqlagan holda davlat qo'riqxonalarida muhofaza hududlarini tashkil qilish (Surxon va Kitob qo'riqxonalaridan bundan mustasno), shuningdek, Zomin milliy tabiat bog'ini quyidagi hududlarga ajratish: qo'riqxonalar hududi — qattiq qo'riqlanadigan hudud, har qanday xo'jalik, shu jumladan rekreatsiya faoliyatini yuritish taqiqlangan; rekreatsiya hududi — davomiy va qisqa muddatli dam olish uchun ajratilgan hudud bo'lib, sayyohlar tashrif buyurishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilgan holda ekskursiyalar va ma'rifiy turizm tashkil qilish nazarda tutiladi; kurort hudud — sanatoriya-sog'lomlashtirish uchun mo'ljallangan hudud; xo'jalik yurituvidagi va boshqa hududlar.	Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	1-martgacha	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (B. Kuchkarov), O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi (N. Bakirov), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev), manfaatdor vazirlik va idoralar
17.	Turizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan hududlar va obyektlarni xatlovdan o'tkazish yakunlari asosida Aydarko'l (Jizzax va Navoiy viloyatlari), To'dako'l (Navoiy viloyati) va Uchqizil (Surxondaryo viloyati) ko'llari atrofida rekreatsiya turizmini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish.	Qo'shma harakatlar rejasini tasdiqlash	1-fevralgacha	Jizzax, Navoiy va Surxondaryo viloyati hokimliklari, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), Suv xo'jaligi vazirligi (Sh. Xamroyev), manfaatdor vazirlik va idoralar
18.	Xalqaro gastronomik festivalni tashkil etish va o'tkazish.	Ijrochilarning qo'shma harakatlar rejasini	oktyabr-noyabr	Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi

				(A.Akkulov), O'zbekiston oshpazlar uyushmasi (M. Usmanov), TIV (A. Komilov), manfaatdor vazirlik va idoralar
19.	Mahalliy va xorijiy avto va moto-sport federatsiyalari ishtirokida Ustyurt (Qoraqalpog'iston Respublikasi) yassiligidagi ekstremal marshruti bo'ylab avtoralli tashkil qilish va o'tkazish.	Ijrochilarning qo'shma harakatlar rejasi	aprel-may	“Vatanparvar” MKT (R. Niyozov), Jismoniy tarbiya va sport vazirligi (D. Nabiyev), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), manfaatdor vazirlik va idoralar
20.	Quyidagilarni o'z ichiga olgan agroturizmni rivojlantirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish: turizm aylanmasi (biznes)ga fermer va dehqon xo'jaliklarini, qishloq joylardagi mahalliy aholini (asosan uzoq va tog'li hududlardan) jalb qilish; qishloq va etnografik turlar (an'anaviy turmush tarzi, hunarmandchilik, taom tayyorlash va boshqalar) doirasida sayyohlarni qabul qilish istagiga va imkoniyatiga ega bo'lgan dehqon va fermerlar uchun namunaviy “turistik mahalla” tipdagi uy-joy komplekslari (an'anaviy uslubdagi) qurish; fermer xo'jaliklarining faoliyatini kengaytirish va diversifikatsiya qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, shu jumladan, sharob mahsulotlari, quritilgan mevalar, shirinliklar va boshqalarni joyida tatib ko'rishni tashkil qilish yo'li bilan ular hududida yagona tuzilmaga (qishloq turistik klasteri) birlashtirilgan agro-etno-qishloq shaklidagi model uyushmalar barpo etish.	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi	1- aprelgacha	Qishloq xo'jaligi vazirligi (B. Yusupov), O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (A. Xaitov), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), manfaatdor vazirlik va idoralar

21.	<p>Quyidagi choralarni amalga oshirish orqali “shopping” (savdo) turizmini rivojlantirish: tarixiy shaharlar va viloyatlarning ma'muriy markazlarida boj to'lovi olinmaydigan do'konlar (“Duty Free”)ni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi Qonuni loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish; brend kiyim-kechak mahsulotlari, kosmetika va aksessuar tovarlar sotuvi yo'lga qo'yilgan savdo-ko'ngilochar komplekslar tashkil etilishini rag'batlantirish.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi</p> <p>Tashkiliy-amaliy choralar</p>	<p>1- martgacha</p> <p>1- noyabrgacha</p>	<p>Davlat bojxona qo'mitasi (M. Azimov), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov) Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi (S. Bekenov), Savdo-sanoat palatasi (A. Ikramov), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
22.	<p>Respublikada, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutuvchi “MICE” turizmni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish: turizmdagi mavsumiylikka qarab o'tkazish vaqtini aniqlagan holda mahalliy va xalqaro darajadagi tadbirlarni o'tkazish dasturini tuzish; “MICE” turizm tadbirlarini o'tkazish maqsadga muvofiqligidan kelib chiqqan holda binolar, mehmonxonalar ro'yxatini shakllantirish.</p>	<p>Qo'shma chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash</p>	<p>1- martgacha</p>	<p>Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev), Jismoniy tarbiya va sport vazirligi (D. Nabiye), TIV (A. Komilov), manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
<p><b>III. Aholi va turistik faoliyat subyektlarining faolligini rag'batlantirishni ta'minlovchi ichki turizmni rivojlantirish</b></p>				
23.	<p>Hududlarda tadbirkorlik subyektlariga turizm sohasida berilgan imtiyoz va preferensiyalar haqida ma'lumot berish va targ'ib qilish bo'yicha soliq bojxona organlari va Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi mutaxassislaridan iborat qo'shma ishchi guruh tashkil etish.</p>	<p>Tashkiliy choralar</p>	<p>yil davomida</p>	<p>Davlat soliq qo'mitasi (B. Musayev), Davlat bojxona qo'mitasi (M. Azimov), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov)</p>
24.	<p>Mahalliy va xorijiy madaniyat va san'at arboblari ishtirokida hududlarning boy madaniy-</p>	<p>Ijrochilar qarori</p>	<p>yil davomida</p>	<p>MTRK (A. Xodjayev), Turizmni</p>

	tarixiy va turizm salohiyatini yorituvchi turkum teleko'rsatuvlar yaratish.			rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), Madaniyat vazirligi (B.Sayfullayev)
25.	Turistlar erkin yo'nalish olishlari uchun respublika bo'yicha asosiy turistik namoyish obyektlari va turizm obyektlariga olib boruvchi yo'llarda yagona shakldagi turistik-axborot ko'rsatkichlarini o'rnatish.	Tashkiliy choralar	1-iyulgacha	Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi (A. Abduvaliyev), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
26.	O'zbekiston bo'yicha ichki turizmni rivojlantirishga ko'maklashayotgan eng yaxshi turoperator, ish beruvchi, OAV va bloger, shuningdek, mamlakat bo'ylab sayohatchini aniqlash bo'yicha tanlovlarni tashkil etish va o'tkazish.	Tashkiliy choralar	dekabr	Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), manfaatdor vazirlik va idoralar
<b>IV. Ichki va tashqi bozorlarda milliy turizm mahsulotini ilgari surish</b>				
27.	Quyidagilarni: tanlovlarni o'tkazish orqali O'zbekistonning yagona milliy turizm brendini, shuningdek, uning asosida hududlarning turizm brendlarini; tashqi bozorlarda "O'zbekiston" turizm brendini ilgari surish strategiyasini ishlab chiqish va hududlarning turizm brendini ilgari surish bo'yicha har bir mamlakat uchun alohida marketing ishlari dasturlarini tasdiqlash; xorijiy mamlakatlarda O'zbekistonning ijobiy imijini shakllantirish va turizm salohiyatini ilgari surish bo'yicha xorijiy kompaniyalar va agentliklar, shu jumladan "M&CSAATCNI" agentligi bilan hamkorlik bo'yicha choratadbirlar rejasini ishlab chiqish.	Tashkiliy-amaliy choralar	1-iyulgacha  1-avgustgacha	Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), "O'zbekiston havo yo'llari" MAK (B. Xakimov), "O'zbekiston temir yo'llari" AJ (F. Sagdullayev), Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev), Jismoniy tarbiya va sport vazirligi (D. NABIYEV), TIV (A. Komilov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
28.	O'zbekistonning milliy turizm	Tashkiliy choralar	yil	Turizmni

	brendini faol ilgari surish, shu jumladan mashhur xorijiy telekanallar, jurnallar va boshqa OAVda mamlakatimizning turistik jozibadorligini targ'ib qiluvchi dasturlar namoyishini tashkil etish.		davomida	rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev), TIV (A. Komilov), Moliya vazirligi (A. Xaydarov)
29.	O'zbekistonning va hududlarning turizm xaritalarini ishlab chiqish va chop etish, shuningdek, turizm xaritasining elektron shaklini turizm portallarida joylashtirish hamda turli platformalar uchun, shu jumladan Internet tarmog'iga ulanmasdan ishlaydigan mobil ilova ishlab chiqish.	Ijrochilar qarori	yil davomida	"Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi (A. Abdullayev), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov)
30.	Har bir soni mamlakatimiz alohida hududining o'ziga xos xususiyatlari va uning aholisi madaniyati haqida hikoya qiluvchi turli turistik mavzularda O'zbekiston to'g'risidagi almanax chop etishni tashkil qilish.	Jurnal chop etish	1- martgacha	Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), manfaatdor vazirlik va idoralar
31.	Mashhur Internet resurslarida joylashtirish uchun Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi diqqatga sazovor joylarning 3D modelini yaratish.	Tashkiliy choralar	yil davomida	Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari ni rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov)
32.	OAV, xorijiy ijodiy guruhlar tomonidan mamlakatimiz tarixi va turizm salohiyati haqida foto va video materiallar tayyorlash uchun uchuvchisiz uchish apparatlarini olib kirish va respublika hududida foydalanishga ruxsat olishni soddalashtirish.	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi	30- yanvargacha	DXX (I. Abdullayev), IIV(P. Bobojonov), Mudofaa vazirligi (A. Azizov), Parvozlarning xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (T. Uljayev), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev),



				“O‘zbekkino” MA (F. Zokirov), manfaatdor vazirlik va idoralar
33.	“Buyuk ipak yo‘li” mamlakatlari bo‘ylab sayohat qiluvchi turistlar uchun “Silk visa” yagona turistik vizasi tizimini joriy qilish masalasini o‘rganib chiqish.	Tashkiliy choralar	1-iyulgacha	TIV (A.Komilov), Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov), IIV (P. Bobojonov), DXX (I. Abdullayev), Davlat persanallashtirish markazi (N.Nazarov)
34.	Xorijiy fuqarolarga uzoq muddatli viza olish imkonini beruvchi “Uzbekistan — my second home” (“O‘zbekiston — mening ikkinchi uyim”) dasturini joriy qilish masalasini o‘rganib chiqish.	Tashkiliy choralar	1-iyulgacha	TIV (A. Komilov), Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov), IIV (P. Bobojonov), DXX (I. Abdullayev), Davlat personallashtirish markazi (N. Nazarov), Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi (S.Bekenov)
<b>V. Turizm sohasidagi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish</b>				
35.	Quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyahasini ishlab chiqish: gid, yo‘riqchi-kuzatuvchining huquqiy maqomini, ularning faoliyatini kasb sifatida tan olish va mehnat stajiga hisoblash tartibini belgilash. xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorining gidlar ma‘lumotiga qo‘yilgan talablar qismini ularga ushbu faoliyat bilan o‘rta maxsus ma‘lumot bilan shug‘ullanish huquqini taqdim etgan holda qayta ko‘rib chiqish;	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	1-fevralgacha	Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov), manfaatdor vazirlik va idoralar

	<p>“O’quv-konsalting markazi” DUK tomonidan gidlar, ekskursovod-kuzatuvchilar va turizm sohasi subyektlari ishchilariga malaka sertifikatlarini berish uchun onlayn test o’tkazishni tashkil qilish;</p> <p>turizm xizmatlari sohasida kadrlar tayyorlash uchun mutaxassisliklar ro’yxatini kengaytirish, kadrlar tayyorlash bo’yicha oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimi o’quv rejalarini takomillashtirish;</p> <p>gidlarga malaka toifasini joriy etish va gidlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.</p>			
36.	<p>Ta’lim muassasalarida Butunjahon turizm tashkilotining “TedQual” (Tourism Education Quality) tizimi bo’yicha turizm ta’limi sifatini sertifikatlashtirish xalqaro tizimini tatbiq qilish.</p>	<p>Ijrochilarning qo’shma harakat rejasi</p>	<p>1- martgacha</p>	<p>Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov), Turizmni rivojlantirish davlat qo’mitasi (A. Akkulov), TIV (A. Komilov)</p>